



O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

Postda Ha nocty

2023-yil
6-aprel
payshanba

№ 14 (4604)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan

Web-site: www.postda.uz

E-mail: info@postda.uz

SHAHRIXONNING SERGAK POSBONLARI



Shahrixon 1939–1940-yillarda katta Farg'ona kanali qurilishi davrida vujudga kelgan. Shahar aholisi 80 ming nafardan ziyod.

7

ТИББИЁТДАГИ ТАКОМИЛЛАШУВ

хизмат сифатини кўтаришда
муҳим омил



5

AMIR TEMUR SHE'R BITGANMI?

Sohibqiron Amir Temur buyuk sarkarda va siyosatchi bo'lishi barobarida, madaniyat, ilm-fan va adabiyotning ulug' homiysi sifatida tarixda qoldi.



10

АСОСИЙ ВАЗИФА – ТЕЗДА АНИҚЛАШ ВА ФОШ ЭТИШ



13



Концепция – амалда

МУШТАРАК МАҚСАД ЙЎЛИДА

Ички ишлар органларида маънавий-маърифий ишларни ташкил этиш концепцияси қабул қилинганига эндигина икки йил тўлди. Аммо ўтган қисқа вақт ичида тизимда кўплаб ижобий ишлар амалга оширилганлиги диққатга сазовордир.

Ушбу давр ичида 68 мингдан ортиқ турли маънавий-маърифий ва маданий тадбирлар, давра суҳбатлари, тарбиявий-профилактик ҳамда тарғибот-ташвиқот ишлари олиб борилди. Соҳага оид 17 та тарқоқ ҳолдаги ҳужжат бирлаштирилиб, ягона низом сифатида қабул қилинди. Унга кўра, маънавий-маърифий ишларни ташкил этиш, давлат тилида иш юритиш, интизомий кенгашлар, «Маънавият ва маърифат дарслари», «Ватанпарварлик кун», ходимларнинг фуқаролар билан муомала маданияти, қасамёд қабул қилиш тартиби, хизмат кийимини кийиш маданияти, интизомий, маъмурий ҳамда жинсий ҳавобгарликка тортилган ходимларнинг ҳисоботини юритиш ва раҳбар ходимларнинг фаолиятини баҳолаш тартиблари белгиланди.

Китобхонлик маданиятини юксалтириш мақсадида алоҳида меъёрлар белгиланиб, ходимларнинг китоб ўқишлари қатъий назоратга олинди. Ўқишга тавсия этилган китобларнинг электрон ва аудио форматлари вазирликнинг расмий веб-сайтларига ҳам жойлаштириб борилмоқда. Ходимлар ўртасида «Энг яхши китобхон», «Энг яхши кутубхона» кўрик-танловлари мунтазам ўтказиб келинмоқда. 2021 йилнинг ўзида 7 та кутубхона янгидан барпо этилиб, 9 таси таъмирланди, кутубхоналар фондини бойитиш учун салкам 4 миллиард сўмлик китоб харид қилинди. Натижада шахсий таркибнинг кутубхоналарга аъзо бўлиш даражаси 27 фоиздан 70 фоизга кўтарилди. Ўтган даврда 288 та «Ватанпарварлик бурчаги», 5 та музей ташкил этилди. Тизим фаолияти ва тарихини ёритувчи 24 та китоб яратилиб, нашрдан чиқарилди.

«Устоз-шогирд» аънасини янада ривожлантириш мақсадида тизим фахрийлари билан ёш ходимлар ўртасида кўплаб учрашувлар ўтказилди. 11 минг нафар фахрий ҳолидан хабар олиниб, уларга ижтимоий ва тиббий ёрдам кўрсатилди.

Ёшлар фаоллигини ошириш, уларнинг таклиф ва ташаббусларини қўллаб-қувватлаш, муаммоларига ечим топишга кўмаклашиш йўлида 37 минг 363 нафар ёш ходим билан турли тадбирлар ўтказилди. Ички ишлар органларида мутлақо янги, самарали тизим, яъни, ҳар бир раҳбарнинг қўл остидаги шахсий таркиби билан «ходимбай» ишлаш тартиби жорий этилди. Бундан ташқари, ходимларни ижтимоий қўллаб-қувватлаш самарадорлигини ошириш мақсадида маиший комиссиялар фаолияти тубдан қайта кўриб чиқилди. Ижтимоий таъминот фаолиятининг шаффофлигини таъминлаш, ходимларнинг ушбу масалалардаги мурожаатларини онлайн қабул қилиш, ортиқча овозгарчиликларнинг олдини олиш мақсадида «ijtimoiy-himoya.iiv.uz» электрон дастури яратилди.

Юқори натижаларга эришиб келаятган 61 минг 158 нафар ходим идоравий кўкрак нишонлари, фахрий ёрликлар, эсдалик совғалари ва пул мукофотлари билан тақдирланди.

Олий Мажлис Сенатининг қарорига мувофиқ, «Гендер тенглик фаоли» миллий танловида «Гендер тенгликни таъминлашда энг фаол ҳуқуқни муҳофаза қилувчи орган» номинациясида вазирлик ғолибликни қўлга киритди. Бундан ташқари, Республика Маънавият

ва маърифат маркази ва Ёшлар ишлари агентлиги томонидан ташкил этилган «Ватаним мадҳиясини куйлайман!» танловининг «Давлат мадҳиясини энг яхши куйлаган меҳнат жамоаси» номинацияси бўйича ИИВ жамоаси кетма-кет 2 йил давомида фахри биринчи ўринни қўлга киритди.

Ходимларнинг маънавий, маданий ва эстетик дам олишларини таъминлаш



мақсадида юртимизнинг диққатга сазовор жойлари, маънавият ва маърифат масканлари, тарихий ҳамда маданий обидаларига «Маънавият маршрути» лойиҳалари асосида саёҳатлар ташкил этилди. Шунингдек, ўтган йили 10 июндан 10 июль кунига қадар мамлакатимиз ички ишлар органларида «Темир интизом ва ҳалоллик – муваффақият калити» шиори остида «Интизом ойлиги» ўтказилди. Шу билан бирга, «Ватанга ва халққа садоқат билан хизмат қилиш – олий бурчимиз!» ҳамда «Янги Ўзбекистонда эл азиз, инсон азиз!» шиорлари остида «Ватанпарварлик ойлиги» ташкил этилди.

Давлатимиз раҳбарининг 2021 йил 26 мартдаги «Маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарорига биноан ўтказилган «Энг намунали вазирлик ва идора» танловида Ички ишлар вазирлиги жамоаси 21 та вазирлик ва идора ўртасида фахри биринчи ўринни эгаллаб, Президент совғаси – «Дамас» автомашинаси

жаларга эришган 1 минг 784 нафар ходимнинг 1 минг 861 нафар фарзандига ажратилган 5 фоизли квота доирасида олий ўқув юртинининг бакалаврига танлов асосида ўқишга кириши учун имтиёзли тавсияномалари тақдим этилди.

Шу билан бирга, ички ишлар органларидан ноҳақ бўшатишган 150 нафар ходим тизимга қайта қабул қилиниб, уларнинг ҳақ-ҳуқуқлари тикланди. Тизимда ёш ходимлар билан ишлаш борасида ҳам бир қатор тадбирлар амалга оширилди. Фидойи ва садоқатли ёшларни қўллаб-қувватлаш мақсадида ИИВнинг 2022 йил 13 июндаги буйруғи билан Ички ишлар вазирлигининг «Ёшлар фидойиси» кўкрак нишони таъсис этилди. Шунингдек, Андижон вилоятининг Хонобод шаҳрида барча шаҳар-туман ҳамда вазирликнинг соҳавий

хизматлари ёшлар етакчилари ва фаол ёш ходимлари иштирокида «Янги Ўзбекистон ёшлари, бирлашайлик!» шиори остида II Республика ёшлар форуми ташкил этилди. Бундан ташқари, вазирлик тарихида илк марта ёш ходимлардан иборат 14 та жамоа ўртасида республика «Қувноқлар ва зукколар» танлови ўтказилиб, ИИВнинг «VSF 102» жамоаси шакллантирилди. Ички ишлар ва Фавқулодда вазиятлар вазирликлари ташаббуси билан ўтган йилнинг 13 ноябрь куни пойтахтимизнинг «Ашхобод» боғида ташкил этилган югуриш марафонида минг нафардан ортиқ ёш ходим ҳамда ўқувчи ёшларнинг иштироки таъминланди.

Хулоса қилиб айтганда, ички ишлар органларида амалга оширилаётган ишларнинг бош мақсади шахсий таркиб ўртасида маънавий-маърифий ишлар самарадорлигига эришиш, ходимларнинг маънавиятини юксалтириш, она Ватанга муҳаббат, хизмат бурчига садоқат руҳида тарбиялашдир.

Ҳамза МАХСУМОВ,
ИИВ Маънавий-маърифий ишлар ва кадрлар билан таъминлаш департаменти бошлиғи ўринбосари, полковник.



YANGI O‘ZBEKISTON – YANGI ICHKI ISHLAR ORGANLARI

SHUNDAY SHAROITDA ISHLASHNI ORZU QILGANDIK

– deydi Surxondaryoning olis Bandixon tumani IIB xodimlari

Ayni yasharish fasli kezingan kunlarda Surxon vohasidagi tumanlardan birida yangi Ichki ishlar bo‘limi binosi foydalanishga topshirildi. Bandixon tumani IIB xodimlari shinam, barcha qulayliklarga ega zamonaviy binoda xizmat faoliyatini boshlashdi.



– Bandixon tumani IIB o‘z faoliyatini 1992-yili 28 nafar xodim bilan boshlagan, – deydi tuman IIB boshlig‘ining ma‘naviy-ma‘rifiy masalalar bo‘yicha o‘rinbosari, podpolkovnik Bahrom Jabborov. – Ichki ishlar organlarida 34 yillik xizmat faoliyatim davomida bugunga qadar bo‘lim shaxsiy tarkibi turli noqulay sharoitlarda xizmat olib borganiga guvoh bo‘lganman. Dastlab kichikkina bog‘cha binosida qo‘nim topgan xodimlar hatto yo‘riqnoma yig‘ilishlarini ham ko‘chada o‘tkazishardi. So‘ngra eski qurilish tashkilotining binosiga ko‘chishdi. U yerda ham sharoitlar haminqadar edi. 2010-yilda tuman hududi Qiziriq tumaniga qo‘shib yuborilgach, tuman IIB shaxsiy tarkibi ham Qiziriq tumani IIBga o‘tkazildi.

Garchi Bandixon qo‘rg‘on militsiya bo‘linmasi saqlab qolingani bo‘lsa-da, bu xodimlar uchun ham, o‘sha vaqtda mavjud 50 ming nafarga yaqin aholi uchun ham ko‘plab noqulayliklarni keltirib chiqardi. «Bektepa» mahallasi-dagi eski qurilish binosida faoliyatini davom ettirgan bo‘linmada bor-yo‘g‘i 20 nafar xodim xizmat qilardi. Biroq ular xizmat yo‘riqnomalarni olish uchun 30 kilometr uzoqlikda joylashgan Qiziriq tumani IIBga har kuni qatnashga majbur bo‘lishardi. Xizmat uchun esa

atigi bitta avtomashina ajratilgan edi. Qolaversa, aholining murojaatlari mazkur bo‘linmada emas, balki faqat Qiziriq tumani IIB bo‘limida qabul qilinardi. Aholi ham, profilaktika inspektorlari ham har bir ariza va shikoyat uchun, uzoq masofani bosib o‘tishga majbur bo‘lishardi.

- **Albatta, imkoniyatlarning chegaralanishi jinoyatchilikni jilovlashda ham qiyinchilik tug‘dirdi. Aholi anchagina tarqoq joylashgan hudud maydoni jihatdan ancha katta bo‘lgani bois to‘liq nazorat qilishning imkoni kam edi. Bu hol 9 yil davom etdi.**

Prezidentimiz tashabbusi bilan 2019-yil 30-noyabr kuni Bandixon tumani qayta tashkil etilishi hudud aholisi uchun quvonchli hodisa bo‘ldi. O‘z navbatida, Ichki ishlar bo‘limi xodimlarining ham imkoniyatlari kengaydi, ular uchun odamlar orasida ko‘proq bo‘lish imkoni tug‘ildi.

– Shundan so‘ng tuman IIB shaxsiy tarkibi kengayib, hududda mavjud 22 ta mahallaning barchasida profilaktika inspektorlari aholining osoyishtaligini saqlash, huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish borasidagi xizmat vazifasini bajarishga kirishdi, – deydi tuman IIB boshlig‘i, podpolkovnik

Akmal Berdinazarov. – Sekin-asta jinoyatchilikni jilovlash qamrovi ham kengayib bordi. Biroq shu kunga qadar tuman IIB shaxsiy tarkibi xizmat faoliyatini kasb-hunar kollejinining bir qismida, moslashtirilgan binoda davom ettirib kelayotgandi. Ichki ishlar vazirligi tomonidan ajratilgan mablag‘ evaziga yaqinda yangi, zamonaviy bino qurib bitkazildi. Bu quvonchli hodisa barchamiz uchun katta voqeelik bo‘ldi.

Tuman Ichki ishlar bo‘limi binosining tantanali ochilish marosimida viloyat hokimi, viloyat IIB boshlig‘i, soha faxriylari, xodimlar va keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi. Unda so‘zga chiqqanlar foydalanishga topshirilgan yangi bino tuman ichki ishlar organlari xodimlari uchun chinakam tuha bo‘lganini ta‘kidlashdi.

Yangi binoda xodimlar samarali xizmat qilishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Zamonaviy ma‘naviyat va ma‘rifat xonasidan tortib kutubxona, «Vatanparvarlik burchagi»gacha tashkil qilingan. Hatto mini stadion ham mavjud bo‘lib, xodimlar endilikda bemalol sport bilan shug‘ullanishi mumkin. Qolaversa, zamonaviy texnik vositalar bilan to‘liq jihozlangan xizmat xonalaridan tashqari, sport zali, dam olish va o‘quv xonalari xodimlar ixtiyorida.

- **Barcha harakatlar inson qadri uchun yo‘naltirilayotgan bir paytda foydalanishga topshirilgan yangi bino ushbu ezgu niyatning yorqin namunasi bo‘la oladi. Negaki, yaxshi sharoitda ishlash ham kayfiyatga, ham ish unumiga ijobiy ta‘sir o‘tkazadi. Shu bois bugun tuman IIB xodimlarining xizmatga yondashuvi o‘zgacha.**

– Ilgari yangi binolarda xizmat olib borayotgan xizmatdoshlarimni ko‘rganda, qachon bizda ham shunday sharoit yaratilarkan, degan o‘y-niyat ko‘p o‘tardi xayolimdan, – deydi tuman IIB Tashkiliy bo‘linmasi navbatchilik qismi katta inspektor-navbatchisi, mayor Botir Xo‘jamberdiyev. – Shukrki, bugun ana shu niyatimning ro‘yobini ko‘rib, ich-ichimdan quvonaman. Har kuni ishga otlanarkanman, ishxonamga ishtiyok bilan oshiqaman. Hatto har o‘tadigan navbatchilikda charchoq sezmayman. Bizga qulayliklarni yaratib bergani uchun Ichki ishlar vazirligi rahbariyatiga minnatdorlik bildiraman.

Feruza RAHMONQULOVA,
«Postda» muxbiri.

Surxondaryo viloyati.

✓ *Концепция в действии*

ИСТОРИЯ, ИЗЛОЖЕННАЯ В КНИГАХ

История органов внутренних дел Андижанской области – это история нескольких поколений стражей правопорядка, биографии людей, посвятивших себя делу обеспечения общественной безопасности и борьбы с преступностью.



На суд читателей представлены издания, вышедшие в свет недавно. В них описаны годы становления органов внутренних дел Андижана.

Открывает панораму книг документальное эссе «Осойишталикнинг машаққатли йўллари», авторами которого являются полковник Аюбхан Рахматуллаев и полковник в отставке Гуломжон Рахимов. В издании повествуется о том, как стражи порядка, оставаясь верными служебному долгу, рискуя жизнью, боролись с преступностью, укрепляли правопорядок.

После обретения Узбекистаном независимости в системе органов внутренних дел стали происходить значительные изменения. Совершенствовалась струк-

тура, стиль, формы и методы деятельности, создавалась правовая база, заложившая фундамент для работы на высоком профессиональном уровне.

В книге рассказывается о сотрудниках, погибших во время исполнения служебного долга, повествуется об их мужестве.

Продолжает галерею книг «Ватан осойишталиги посбонларининг жасорат зарварақлари», подготовленная авторским коллективом представителей УКД ОВД по городу Андижану.

Книга «Халқ ва давлат манфаатларига хизмат қилиш – олий бурчимиз» посвящена сотрудникам ОВД отдаленного целинного Улугнорского района.

Инициативная группа сотрудников Кургантепинского РОВД подготовила издание «Тарих ва янги давр ислохотлари». В нее включены статьи, посвященные истории Кургантепинского района и отдела внутренних дел, повествуется о подполковнике Убайдулло Халикове, награжденном медалью «Содиқ хизматлари учун».

В книгах «Тинчлик ва осойишталик тарихи» (Джалакудукский РОВД), «Садоқат ва масъулият» (Ходжабадский РОВД), «Матонат» (Мархаматский РОВД), «Ватан – азиз, бурч – муқаддас» (Булакбашинский РОВД), «Хавфсизлик ва осойишталик посбонлари» (Шахриханский РОВД), «Тинчлик-осойишталик сарҳадлари – мангуликка дахлдор номлар» (Избасканский РОВД), «Жасорат ва мардлик сарҳадларининг кўҳна ва янги тарихи зарварақлари» (Бустонский РОВД), «Ватан ҳимоясидаги осойишталик посбонлари» (Асакинский РОВД), «Халқимиз осойишталиги йўлида ёниб яшовчи ўғлонларимиз кўҳна ва янги тарихи зарварақлари» (Пахтабадский РОВД) и «Кеча ва бугун» (Андижанский РОВД) рассказывается об истории становления и сегодняшнем дне районных отделов внутренних дел, их деятельности по противодействию преступности, профилактике правонарушений, лучших сотрудниках, подающих пример сослуживцам.

Бекзод УРИНОВ,
подполковник.
Борис КЛЕЙМАН,
корреспондент «На посту».
Андижанская область.



ТИЛИНИ АСРАГАН – ЭЛИНИ АСРАЙДИ

Ички ишлар вазирлиги Ихтисослаштирилган мактаб-интернатиди «Қадринг баланд бўлсин, она тилим!» мавзусида маънавий-маърифий тадбир бўлиб ўтди.

Унда Ички ишлар вазирининг маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш, давлат тили тўғрисидаги қонун ҳужжатларига риоя этилишини таъминлаш масалалари бўйича маслаҳатчиси, подполковник Хуршид Рўзиев, «Тонг юлдузи» газетаси бош муҳаррири Феруза Адилова, Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси аъзоси, таниқли шоир, истеъфодаги полковник Зикрилло Неъматовлар иштирок этди.

Сўзга чиққанлар ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини ошириш ҳамда давлат тили тўғрисидаги қонун ҳужжатларига риоя этилишини таъминлаш борасида ички ишлар органлари тизимида амалга оширилаётган ишлар ва келгуси вазифалар ҳақида гапирдилар. Хусусан, миллий тилни асраб-авайлаш, уни писанд қилмайдиганлар тажовузидан асраш зиёлиларнинггина эмас, балки ўзини, тилини, миллатини ҳурмат қиладиган ҳар бир фуқаронинг бурчи эканлиги таъкидланди.

Мактаб ўқувчилари томонидан тайёрланган «Тилини асраган – элини асрайди» номли театрлаштирилган чиқишлар, куй-қўшиқлар учрашувга ўзгача файз бағишлади.

Тадбир якунида фаол ўқувчиларга китоблар тақдим этилди.

Ўз мухбиримиз.

■ Наманганская область

ВСЕЛЯЯ УВЕРЕННОСТЬ В СОБСТВЕННЫЕ СИЛЫ



Инспектор по важным поручениям группы по работе с женщинами ОПП УВД Наманганской области старший лейтенант Гулноза Рахматуллаева родом из Туракурганского района.

После окончания Наманганского государственного университета Гулноза некоторое время работала в сфере образования, но в 2014 году решила реализовать мечту юности – встать в ряды сотрудников органов внутренних дел. Служебную деятельность в органах правопорядка начала в подразделении по обеспечению безопасности на транспорте.

В 2019 году, после введения должности инспек-

тора по вопросам женщин, по рекомендации руководства она была назначена на эту должность.

– Наша деятельность направлена прежде всего на обеспечение защиты прав, законных интересов женщин, ограждение их от любых форм притеснения и насилия, раннее предупреждение совершения с их стороны правонарушений, – говорит старший лейтенант Г. Рахматуллаева. – В

центре внимания – работа с несовершеннолетними девушками, состоящими на учете ОВД и образовательных учреждений. Цель – оградить их от неверного шага.

В графике трудовых будней Гулнозы Рахматуллаевой предусмотрены мероприятия по широкому охвату женщин и девушек профилактической работой.

– Вместе с коллегами в махаллях, образовательных учреждениях организуем встречи и беседы, на которые приглашаются педагоги, психологи, представители Республиканского центра духовности и про-

светительства, – отмечает наша собеседница. – В минувшем году в 778 махаллях проведены такие встречи, в ходе которых участницы получали ответы на многочисленные вопросы, касающиеся прав женщин, условий, создаваемых в стране для реализации ими своего потенциала. Эти мероприятия укрепляют в их сознании чувство ответственности, вселяют уверенность в собственные силы, мотивируют на достижение высоких целей.

Гулчехра БУВАМИРЗАЕВА,
корреспондент
«Postda».



■ Инсон қадри учун

ТИББИЁТДАГИ ТАКОМИЛЛАШУВ

хизмат сифатини кўтаришда муҳим омил

ИИВ Тиббиёт бошқармаси Марказий госпитали ва Марказий поликлиникаси томонидан бириктирилган контингент ва уларнинг оила аъзолари, фахрийларга тиббий хизмат кўрсатиш сифатини тубдан яхшилаш мақсадида соҳага замон талабларига мос илгор технологиялар кенг татбиқ этилмоқда. Қуйида ушбу янги тиббий анжомлар яъни, кольпоскоп, лапароскоп, артроскопнинг зарурати билан яқиндан танишасиз.



Феруза ЖАМИЛОВА,
ИИВ Марказий поликлиникаси олий тоифали шифокор-гинеколог, тиббиёт фанлари номзоди, Соғлиқни сақлаш аълочиси:

– Маълумки, бачадон бўйни саратони аёллар саломатлигига энг жиддий таҳдид солувчи касалликдир. Бириктирилган контингентда ушбу оғир хасталикни эрта аниқлаш ва тўғри ташхис қўйиш мақсадида тиббиёт муассасамизга замонавий «Эдан» кольпоскопининг келтирилиши айна мудида бўлди.

Кольпоскоп – оптик видеокурлма ўзига хос микроскоп бўлиб, у бачадон бўйни патологияларини таҳлил қилиш ва ташхислаш жараёнида ҳолатни 40–100 бараваргача катталаштириб бериш имкониятига эга. Бачадон бўйни турли патологиялари, дисплазиялар, саратон олди ҳолатларини аниқлашда қўл келадиган қурилма хотирасига текширув натижалари муҳрланади. Бу бемордаги ўзгаришларни маълум вақт оралиғида кузатиб бориш имконини беради.

Кольпоскопдан ўтган йили сентябрь ойидан фойдаланишни бошлаган бўлсак, йил охиригача гистологик тасдиқланган 2 нафар аёлда 1-босқич ҳолатидаги бачадон бўйни саратони, 68 нафар аёлда оғир дисплазия – саратон олди ҳолатини аниқладик. Бунда касаллик ҳеч қандай безовталиксиз, яширин кечиб даврида бўлган. Қувонарлиси, кольпоскопия қилиш ва керакли лаборатор текширувларни ўтказиш орқали тўғри ва аниқ хулосага келдик. Беморлар керакли муолажалардан кейин саломатлиги тикланиб, хизматга қайтишди.

Мутахассис сифатида бачадон бўйни саратони жуда секин, яъни 5 йилдан 20 йилгача ривожланиши мумкинлигини айтиб ўтмоқчиман. Ташвишлиси, саратон касаллиги билан боғлиқ ўлим ҳолатларида бачадон бўйни саратони сут беги саратонидан кейинги иккинчи ўринда туради. Бунинг сабаби ушбу хасталикнинг яширин даврида аёл киши ҳеч қанақа оғриқ сезмаслиги ва кўпинча касаллик чуқурлашиб, юқори босқичга ўтиб кетганидан кейин шифокорга



мурожаат қилишидир. Кўпинча 35–45 ёшгача бўлган аёлларда кузатиладиган ушбу касаллик 1–2 босқичда аниқланса, беморнинг 95 фоизгача яшаб кетиш имконияти бўлади. Шу боис хотинқизлар ўз саломатлигига беэтибор бўлмай, бир йилда бир марта гинеколог кўригидан ўтиши керак.

Мухтор САГАТОВ,
ИИВ Марказий госпитали умумий жарроҳлик бўлинмаси бошлиғи, подполковник:

– Марказий госпиталь жарроҳлик амалиёти бўлинмаси Европа стандартларига тўлиқ жавоб берадиган кўп функцияли жарроҳлик амалиёти столи, ёриткич лампалар, коагулятор аппаратлари, факоэмульсификатор сингари замонавий тиббий жарроҳлик асбоб-ускуналари билан жиҳозланган.

Яқинда Германияда ишлаб чиқарилган лапароскоп аппарати келтирилди. Бугунги кунда ушбу тиббий аппарат ёрдамида қорин бўшлиғи, кўкрак қафаси аъзолари ҳамда гинекологик аъзоларга кам жароҳат етказадиган жарроҳлик амалиётларини бажаряпмиз. Эндиликда ушбу тиббий анжом ёрдамида меъда-ичак, йўғон ичак, ошқозоноти беги, жигардаги кисталар билан боғлиқ каминвазив мураккаб жарроҳлик амалиётларини амалга оширишимиз мумкин.

Дилшод ХЎЖАЕВ,
ИИВ Марказий госпитали тор мутахассислар гуруҳи етакчи травматолог ортопеди:

– Ҳозирда тизза бўғими касалликлари ташхиси ва тизза бўғим менисклари узилиши, бутсимон пайларнинг жароҳати ҳамда коллатераль пайларнинг травматик шикастларида бажариладиган жарроҳлик амалиётини артроскопсиз



Жарроҳлик амалиётида тананинг катта кесилмагани реабилитация даврини қисқартиради. Шунингдек, жароҳатдан кейинги ичак тутилиши, қорин бўшлиғи чандиқ касалликлари деярли кузатилмайди.

Авваллари қорин бўшлиғидаги касалларга бирламчи ташхис қўйиш учун икки соат оралиғида кузатувлар олиб борардик. Ҳозир эса ушбу тиббий анжом ёрдамида қорин бўшлиғига бевосита видеокамера билан кириш орқали касалликка тезкорликда ташхис қўйишга муваффақ бўляпмиз. Агарда беморга жарроҳлик амалиёти зарур бўлса, худди шу аппарат ёрдамида амалга оширамиз ёки бошқа тиббий муолажа турини бошлаймиз.

Шу ўринда аниқ рақамларга тўхталадиган бўлсам, жорий йилнинг шу даврига қадар бўлинмамиз жарроҳлари томонидан 130га яқин жарроҳлик амалиёти ўтказилди. Ўтган йилнинг шу даври билан қиёслаганда, бу икки баравар кўп дегани. Бу бевосита муассасамизга келтирилган энг сўнгги замонавий тиббий анжомлар ёрдамида жарроҳлик амалиётларини тез ва сифатли олиб бориш билан ҳам боғлиқ.



тасаввур қилиш қийин. Ушбу тиббий анжом тизза бўғими тоғайидаги ўзгаришларни ҳар жиҳатдан мукамал, яъни, топографик ва морфологик ўрганишга имкон беради. Ҳатто радиологик услублар билан аниқлаб бўлмайдиган ҳолатларда ҳам артроскоп ёрдамида ташхис қўйиш мумкин. Бу эса даволашни эрта бошлаш ва касалликнинг кейинги асоратлари келиб чиқишининг олдини олишга кўмаклашади.

Муассасамизга келтирилган замонавий артроскоп нафақат кўриш, расмга ва видеотасвирга олиш,

балки биопсия олиш ва даволашда ҳам қўл келмоқда. Айниқса, патологик ўчоқ жойлашган соҳани белгилаб, даволаш вақтида оёқ ўқи ва тизза бўғими юзларига тушадиган босим зоналарини аниқлашда ёрдам беради.

Касалликнинг кечилишига боғлиқ равишда, бўғимдаги патологик ўзгаришларни ўрганиш клиник ташхисни тўғри шакллантиришга ва даволаш йўналишини тўғри танлашга имкон туғдиради. Авваллари тизза бўғими касалликлари билан боғлиқ оддий жарроҳлик амалиётларини бошидан кечирган беморга уч ҳафтагача гипс боғлам қўйиларди. Яна икки ҳафта реабилитация даври билан қўшиб ҳисоблаганда, бемор бир ярим ойгача меҳнат лаёқатини йўқотарди. Артроскоп ёрдамида бўғимлардаги жарроҳлик амалиёти ёпиқ усулда ўтказилаётгани боис реабилитация даври икки баравар қисқаради.

ХУЛОСА ЎРНИДА

Халқимизда «Эл соғлиги – юрт бойлиги», деган нақл бежиз айтилмаган. Зеро, ҳар бир инсон ўз мақсадига эришиши, жамият ҳаётининг фаол аъзосига айланиши учун, энг аввало, ҳар томонлама соғлом бўлиши лозим. Бунда сифатли тиббий хизматнинг алоҳида ўрни бор. Айна пайтда эл-юрт тинчлиги ва осойишталигини таъминлаш, жиноятчиликнинг олдини олиш ва қонун устуворлигини таъминлашдек залворли вазибаларни ба-

жараётган ички ишлар органлари ходимларининг жанговар шайлигини ошириш ва уларнинг оила аъзолари, фахрийларнинг саломатлигини тиклашда ИИВ Тиббиёт бошқармасига қарашли тиббиёт муассасаларида амалиётга жорий этилаётган энг замонавий тиббий анжомлар ва улардан самарали фойдаланиш тиббий хизмат сифатини юқори босқичга олиб чиқишнинг муҳим омили бўлишига ишончимиз комил.

Гулноза ТУРҒУНБОЕВА,
«Postda» мухбири.



✓ *Молодежь – наше будущее!*

ПРИНИМАЯ ВЕРНЫЕ РЕШЕНИЯ

Следователя УКД ОВД по г. Фергане лейтенанта Иброхимжона Ирматова можно без преувеличения назвать перспективным молодым специалистом, сумевшим в короткие сроки заслужить доверие и уважение руководства подразделения и коллег по службе.


Работа следователя относится к категории профессий, где необходимы аналитический подход, доскональное знание психологии, умение, что называется, «отделить зерна от плевел». Не обвинять и не стараться оправдать подследственного, а найти истину – вот что считает герой очерка главным в своей профессии.

– Была мечта стать сотрудником органов внутренних дел, – говорит Иброхимжон. – Профессия эта меня привлекла прежде всего возможностью бороться с несправедливостью, помогать людям, попавшим в трудную ситуацию, приносить окружающим пользу, оберегая мир и покой граждан. Благодарю судьбу за то, что в результате настойчивости, терпения и целеустремленности сумел осуществить задуманное.

В 2018 году я поступил в Волгоградскую академию МВД РФ по специальности «Юриспруденция». В 2022 году вернулся в родные края и приступил к работе в должности следователя. Хочу сказать,

что весьма существенную помощь и поддержку мне оказал первый наставник – старший следователь подполковник Азиз Усманов. Это профессионал высокого уровня, чуткий и внимательный, умеющий в процессе кропотливого труда и поисков найти истину, восстановить справедливость. Сегодня мой наставник рядом, помогает во всем, искренне благодарен ему за это.

Первое дело, которое было поручено расследовать лейтенанту И. Ирматову, было связано с фактом хранения и попыткой реализации наркотиков. Житель Ферганы, Р. З., уже был судим за подобное преступление, однако должных выводов не сделал, вновь принявшись за старое. Когда сотрудники органов внутренних дел нагрянули к нему домой, то обнаружили тщательно упрятанные марихуану и гашиш. Подозреваемый, который, по поступившей информации, в ближайшее время намеревался реализовать свой ядовитый товар, не хотел указывать место, где он



выращивал наркотикосодержащую коноплю. В ходе следствия Иброхимжон Ирматов сумел убедить его в том, что упираться и отнекиваться от предъявленных улик бесполезно и нелогично. В итоге Р. З. признал вину и указал место за городом, где на заброшенном земельном участке выращивал коноплю.

– Люблю свою профессию, – говорит И. Ирматов. – Она дает мне уникальную возможность постоянно

повышать уровень знаний, расширять кругозор, узнавать новое и, конечно же, приобретать опыт общения с людьми с разными характерами и судьбами. Знать тонкости и нюансы профессии, уметь работать в команде, принимать верные решения считаю ключевыми качествами хорошего следователя, а потому к этому стремлюсь.

Георгий ПЕТРОСЯН,
корреспондент «На посту».

✓ *На перекрестках судеб*

В ШАГЕ ОТ ТРАГЕДИИ...



В июне прошлого года Ходжейлийским районным судом по уголовным делам был вынесен приговор подсудимой Фатиме Х. (здесь и далее имена изменены), матери двоих детей.

...После окончания университета Фатима начала работать в банковской сфере. Вежливую, обаятельную девушку коллектив принял как свою. Скромная Фатима понравилась Алибеку – одному из ее сослуживцев. Однажды парень признался Фатиме в своих чувствах. Дружеские отношения между молодыми людьми посте-

пенно переросли в чистую красивую любовь. Со временем Алибек и Фатима решили создать семью, но столкнулись с неожиданной проблемой: родители парня были против. Как бы ни пытался Алибек убедить родителей, все было бесполезно. Несмотря ни на что, молодые люди решили стать супружеской парой и жить отдельно. Они за-

ключили брак. Казалось, счастливее людей на свете нет. В 2017 и 2019 годах у них родились дочери...

К сожалению, по определенным причинам и Алибек, и Фатима лишились работы. Тогда глава семьи с помощью знакомых решил отправиться на заработки в Россию. Он приезжал домой каждые пять-шесть месяцев, но со временем это стало происходить все реже...

Фатиме не нравилось, что супруг подолгу не бывает дома, стала часто звонить Алибеку, говорить, что дети скучают по нему, а сама

– ревнует его, требовала, чтобы муж как можно скорее возвратился домой.

Алибек каждый раз пытался успокоить жену, говоря, что он приехал в чужую страну на заработки, уверял супругу, что в скором времени вернется.

Несмотря на это, Фатима пыталась любыми способами повлиять на мужа. Сначала по несколько раз в день звонила Алибеку, а потом ей на ум пришла ужасная идея. Она начала без причины бить своих малолетних дочерей, ругать их, оскорблять. Все это сня-

ла на видеокамеру мобильного телефона и отправила супругу.

Потрясенный такими действиями жены, Алибек тут же позвонил жене и потребовал объяснений. Однако Фатима не внимала словам. Она продолжала издеваться над дочерьми, снимать на камеру и отправлять мужу.

Алибек был вынужден срочно вернуться домой и обратиться в соответствующие органы. По данному факту были приняты меры. В отношении женщины возбуждено уголовное дело...

В ходе судебного заседания Алибек сказал, что сожалеет о произошедшем, отметил, что хочет воспитывать детей вместе с супругой, простил ее, попросил суд учесть это при вынесении приговора. Разумеется, просьба Алибека была учтена судом. Однако...

Говорят, трудности дают человеку как испытание, для их преодоления требуется терпение.

Азамат ПИРНИЯЗОВ,
корреспондент
«На посту».

Республика
Каракалпакстан.



■ Бухарская область



В минувшем году воспитанникам специализированной школы-интерната «Нурли маскан» № 24, расположенной в городе Бухаре, были переданы 40 книг по ПДД, изданные шрифтом Брайля.



С использованием этих книг педагоги во взаимодействии с сотрудниками ДПС проводят с учащимися занятия, направленные на разъяснение необходимости следования правилам безопасного поведения на дорогах, звуковым сигналам светофора. Особое внимание уделяется тому, как правильно переходить перекрестки, улицы с интенсивным автомобильным движением.

Соб. корп.



■ Andijon viloyati

SHAHRIXONNING SERGAK POSBONLARI

(Davomi.
Boshlanishi 1-betda.)

Shahrixon bozori yaqin-yaqingacha ichki ishlar organlari xodimlarining asosiy «bosh og'rig'i» edi. Shahar aholisining asosiy qismini ham dehqon, ham sanoat mollari bozorida faol savdo qiluvchi kichik tadbirkorlar tashkil etadi. Bozorlar orasidan o'tadigan yo'l avtomashinalar, savdo rastalari va mahsulotlar yoyilgan stollar bilan to'ldirib tashlangan edi. Shahrixon bozorlariga qo'shni tuman va viloyatlardan ham odamlar kelardi. Bu yer har doim gavjum bo'lar, minglab xaridor va sotuvchilar bilan to'la edi. Bozorlar tez-tez jinoyatchilik sodir etiladigan joyga aylangan – mayda o'g'irlik, firibgarlik holatlari va savdogarlar o'rtasida janjallar ko'p kuzatilardi.

2021-yilda Andijon viloyati IIB JTSB Patrul-post xizmati 2-tumanlararo otryadi tuzilib, unga boshchilik qilish tajribali xodim, kapitan Zohidjon Jo'rayev zimmasiga yuklatilgach, hammasi o'zgardi.

Farg'ona davlat universiteti bitiruvchisi Z. Jo'rayev patrul-post xizmati xodimi bo'lish uchun barcha bosqichlarni bosib o'tgan. U inspektor-kinolog, piyoda patrul naryadi, avtopatrul xodimi bo'lib xizmat qilgan, otryad komandirining o'rinbosari sifatida faoliyat yuritgan.



Avtopatrul xodimi, safdor Izzatillo To'xliyev.

Yangi tashkil etilgan otryad tarkibiga uzoq yillik ish stajiga ega bo'lgan 20 nafar xodim kirdi. Bo'linma uchta «Nexia-3» va bitta «UAZ» avtomashinasi bilan ta'minlandi.

Batalyon rahbariyati bilan birgalikda patrul yo'nalishlari ishlab chiqildi, ularning asosiy qismi bozorlar va yaqin atrofdagi hududlardan o'tishi belgilandi. Avvalo, bozorlar orasidagi yo'l noqonuniy savdo va vaqtinchalik savdo nuqtalaridan tozalandi. Beshta piyoda patrul doimiy ravishda birlashtirilgan hududni aylanib, mayda o'g'irlik, bezorilik va savdogarlar o'rtasidagi janjallar bartaraf etilishiga hissa qo'shdi. Bozorlar atrofidagi hududni uchta avtopatrul aylanib, noqonuniy to'xtab turgan avtomashinalar egalarini ogohlantirdi. Ko'p o'tmay, bozorlar va unga yondosh hududlarda tartib o'rnatildi. Savdogarlar va bozorga tashrif buyuruvchilar tartib-intizomga o'rgana boshladi.

– Bugungi kunda ham huquqbuzarliklar uchrab turibdi, – deydi PPX 2-tumanlararo otryadi komandiri, kapitan

Zohidjon Jo'rayev, – lekin avvalgidek ko'p emas. Mayda o'g'irlik va bezorilik holatlari keskin kamaydi. Joriy yil boshidan buyon otryad shaxsiy tarkibi tomonidan bir qancha jinoyatlar «issiq izida» fosh etildi.

Masalan, tarkibida safdorlar Izzatillo To'xliyev va Orifjon Rahmonov bo'lgan naryad «Nexia-3» rusumli avtomashina eshigini yordamchi vositalar bilan ochgan va 1 800 000 so'mlik smartfonni o'g'irlashga uringan yigitni qo'lga olishdi. Gumonlanuvchi Shahrixon tumani IIBga topshirildi.

Sodir etgan jinoyati uchun qariyb ikki yildan buyon qidiruvda bo'lgan, viloyat markazida istiqomat qiluvchi A. Anvar Shahrixon dehqon bozorida piyoda patrul xizmati xodimlari tomonidan qo'lga olindi.

Safidorlar Murodiljon Orifjonov, Safarbek Nu'monov, Orifjon Rahmonov va Izzatillo To'xliyev kabi xodimlar xizmat vazifalarini a'lo darajada bajarib, boshqalarga o'rnak bo'lmoqda. Ular o'z burchini sidqidildan ado etish barobarida, fuqarolar bilan xushmuomala munosabatda bo'lishadi.

Bo'linma vaqtinchalik yo'l harakati xavfsizligi xizmati bo'linmasi hududida joylashgan. Tez orada mahalliy hokimiyat tomonidan fuqarolar xavfsizligi va barqaror jamoat tartibini ta'minlash ishiga salmoqli hissa qo'shayotgan patrul-post xizmati bo'limi shaxsiy tarkibi uchun zarur sharoitlar yaratiladigan alohida bino ajratilishi kutilmoqda.

Boris KLEYMAN,
«Ha postu» muxbiri.



Otryad komandiri kapitan Zohidjon Jo'rayev, serjant O'tkir Jo'rayev hamda safdor Orifjon Rahmonovlar ish ustida.





Ёшлар – келажак бунёдкори

«ХОТИРАМГА МУХҲРЛАНГАН КУН...»

«Коллежда ўқиб юрган вақтларимда вояга етмаганлар бўйича инспектор аёл келиб, турли тадбирлар, суҳбатлар ўтказарди. Ҳаммасидан ҳам унинг эгнидаги ўзига ярашиб турган либоси диққатимни тортарди. Шу-шу, тунда шунақа форма кийиб юрганимни хаёл қилиб ухлардим. Коллежни тамомлаб, вилоят ИИБга ҳужжатларимни топширдим. Уч йил деганда кўп синовлардан ўтгач, вилоят ИИБ Йўл ҳаракати хизмати бошқармасига ишга қабул қилиндим. Ўша кун мен учун энг бахтли, энг омадли кун бўлиб хотирамда қолди».



Ички ишлар органларидаги илк фаолиятини ҳаяжон билан эслаган сафдор Мадина Шобердиева бугун вилоят ЙХБда маъмурий амалиёт бўлинмаси кичик инспектори сифатида хизмат вазифасини олиб бормоқда. Ўта тиришқоқ ва меҳнатсевар сафдор йўл-патруль хизмати ходимлари томонидан тақдим этилган баённомаларни расмийлаштиришни ҳам шундай аниқлик ва чаққонлик билан бажаради.

Мадина спортнинг шотакан каратэ-до ва муай-тай турлари билан шуғулланади. Болалигидан спорт машғулотларида чиниққан қаҳрамонимиз мамлакатимизда ўтказилган кўплаб чемпионатларда, турнирларда иштирок этиб, ғолибликни қўлга киритган. Хусусан,

2022 йилда муай-тай бўйича Бухорода ташкил этилган халқаро турнирда ўз вазн тоифасида ғолибликни қўлга киритди.

– Спорт менга нафақат иродали, балки сабр-тоқатли бўлишни ҳам ўргатди, – дейди Мадина Шобердиева. – Бу жиҳатлар ҳаётда энг кўп керак бўлар экан. Турли вазиятларда ҳамма нарсани вазминлик билан енгган инсонгина ютаркан.

Ички ишлар органларида хизмат қилишнинг ўзига яраша қийинчиликлари, масъулияти бор. Шу боис Мадинани турмуш ўртоғи доим қўллаб-қувватлайди. Аслида, аёл киши учун энг асосийси шу. Қаҳрамонимиз ҳам ўз оиласини қадрлашга, ҳамма нарсани яқинларининг розилиги асосида бажаришга ҳаракат қилади.



Ахир, иноқлик, ўзаро аҳилликнинг асоси бир-бирини аяш, тушунишга бориб тақалади.

Ўзи ҳам, сўзи ҳам хушчақчақ сафдор Мадина Шобердиева ҳамкасбларининг меҳрини, ҳурматини қозониб улгурган. У энди ИИБ Академиясида таҳсил олиб, олий маълумот олишни ният қилган. Аҳдига содиқ, мақсади сари дадил қадам ташлайдиган ёш ходиманинги ниятлари ушалишини истадик.

Феруза РАҲМОНҚУЛОВА,
«Postda» мухбири.
Сурхондарё вилояти.



Ҳалолликни шиор қилган ходимлар

«ИШ ХАМИРДАН ҚИЛ СУҒУРГАНДЕК ҲАЛ БЎЛСА...»

Тошкент шаҳрида яшовчи Ш.М. Шаҳрисабзни бедарвоза деб билди, шекилли, туман ҳудудида ўзига тегишли автомашинани маст ҳолда, боз устига, тегишли ҳужжатларсиз бошқаришга жазм этди. Лекин у чучварани хом санаган эди. Мазкур қоидабузарлик профилактика катта инспектори, подполковник К.Эшмуродов томонидан аниқланиб, ҳайдовчига қонуний чора кўриш учун ҳуқуқбузарликка оид тўпланган ҳужжатлар туман ИИБ ЙХБга билдирги орқали ўтказилди.

Вазият бундай жиддий тус олишини кутмаган Ш.М. иш ҳужжатларини кўриб чиқишга масъул бўлган Шаҳрисабз тумани ИИБ ЙХБ йўл-патруль хизмати инспектори, катта сержант Комил Ҳасановга учрашди. Суҳбат давомида ЙПХ инспекторига автомашинасини жарима майдонидан чиқариш ва ҳолат бўйича енгилроқ турдаги ҳуқуқбузарлик учун маъмурий баённома тузиш таклифи билан мурожаат қилди. Албатта, иш хамирдан қил суғургандек ҳал бўлса, нақ 400 АҚШ доллари беришини ҳам гап орасида қистириб ўтди.

Фуқаронинг таклифини тинглаган ходим унга бу хатти-ҳаракати қонунга зид эканлигини айтиб обдон тушунтирса-да, ҳуқуқбузар бунга унамади. Натижада ЙПХ инспектори раҳбариятга билдирги билан мурожаат қилиб, фуқаро Ш.М.га нисбатан қонуний чора кўрилишини сўради.



Ҳолат юзасидан тезкор тадбир ўтказилди. Шаҳрисабз тумани ИИБ ЙХБ биносида фуқаро Ш.М. катта сержант К.Ҳасановга 400 АҚШ долларини пора тариқасида бераётган вақтида ашёвий далиллар билан қўлга олинди.

Ҳалолликни шиор билган ички ишлар органи ходимининг оқилона қарори туфайли қонун устуворлиги таъминланди.

Содиқ РАҲИМОВ,
«Postda» мухбири.
Қашқадарё вилояти.

ВИЖДОНИГА ХИЁНАТ ҚИЛМАДИ

«Janub Alfa Lukus» масъулияти чекланган жамияти раҳбари Иззатилла Шукуров (исм-шарифлари ўзгартирилди) ва ушбу жамиятга қарашли Янгийўл шаҳрида жойлашган савдо дўкони сотувчиси Собир Ибодов ўзаро жиноий тил бириктиради. Улар маҳсулот учун мижозларга харид чеки бермагани камлик қилганидек, дўкон ғазнасидаги нақд пулларни касса аппаратида кирим қилишмайди. Бунинг устига, савдога қўйилган товарларнинг келиб чиқишини тасдиқловчи, шунингдек, кирим ҳужжатлари ҳам йўқ эди. Алкоголь маҳсулотлар экспертиза қилинганида эса улар истеъмолга яроқсизлиги, акциз маркалари қалбаки экани аниқланади.

Ҳудуд давлат солиқ инспекцияси ва ҳуқуқни муҳофаза қилувчи орган ходимлари томонидан аниқланган қонунбузарлик ҳолатларини бутунлай фош этиш Янгийўл шаҳар ИИБ ҳузуридаги Тергов бўлинмаси катта терговчиси, капитан Нозимжон Истамовга топширилди.

Ҳолат юзасидан жиноят иши кўзгатилиб, тергов ҳаракатлари бошлаб юборилди. Айбига иқроор бўлишни истамаган И. Шукуров эса тергов жараёнида ўзига нисбатан енгиллик бериш, дастлабки тергов ҳаракатлари давомида тўпланган далилларни йўқ қилиш ва терговни қайтадан ўтказиш эвазига терговчига 500 АҚШ доллари миқдорда пора таклиф қилди. Қонун ҳимоячисининг унга бу ҳаракати жиноят эканлигини бот-бот эслатиши эса асло наф бермади.

Касби ва қасамёдига содиқ



қолиб, виждони олдида хиёнат қилмаган капитан Н.Истамовнинг билдиргиси асосида ўтказилган тезкор тадбир давомида жорий йилнинг 23 февраль куни Иззатилла Шукуров терговчининг хизмат хонасида унга пора тариқасида таклиф этилган 500 АҚШ долларини бераётган вақтида ашёвий далиллар билан қўлга олинди.

Михли САҒАРОВ,
«Postda» мухбири.
Тошкент вилояти.

Суратда: катта терговчи, капитан Нозимжон Истамов шоғирди – терговчи, лейтенант Хусан Мирюсупов билан хизмат жараёнида.



✓ *Ветераны всегда в строю*

ПОСВЯТИЛА ЖИЗНЬ ПРОФЕССИИ

Как хорошо, что среди нас есть такие люди, щедрая душа которых преисполнена добротой, теплом и искренними чувствами. Они патриоты своей страны, словно яркие звезды освещают нам путь, делятся жизненной энергией и позитивом. Им мы говорим большое спасибо за опыт и беззаветный труд!


К таким людям, красивым и внешне, и душой, относится майор в отставке Элеонора Орловцева. Эта замечательная женщина, настолько приятна в общении, что хочется беседовать с ней долго, понимая, насколько она эрудированна, имеет широкие познания во многих областях человеческой деятельности, в том числе искусстве и различных науках.

6 апреля героиня очерка отмечает День рождения. В связи с этим светлым и радостным событием хотим пожелать Элеоноре Григорьевне крепкого здоровья, благополучия, исполнения всех самых заветных желаний!

Встав в ряды сотрудников органов внутренних дел в годы молодости, Элеонора Григорьевна отдала 35 лет делу обеспечения мира и спокойствия. По глубокому убеждению нашей собеседницы, профессия блюстителя правопорядка имеет огромное значение и важ-

ность в социуме, и если ты посвятил ей всю свою жизнь, то без сомнения внес огромную лепту в дело поистине государственной важности. В годы профессиональной деятельности Э. Орловцева занимала ряд ответственных должностей в системе ОВД Узбекистана. Служба ее началась в одном из ключевых подразделений УВД г. Ташкента, затем ее перевели в дивизион по охране столичных категорированных объектов. Спустя пятнадцать лет, Элеонора Орловцева пришла на службу в УВДТ МВД Узбекистана.

– В те далекие 80-е годы подразделение возглавлял Хаёт Абдуллаевич Салихов – профессионал, чуткий, отзывчивый, умевший грамотно руководить большим коллективом, – вспоминает Элеонора Григорьевна. – У него многому научилась, что в будущем очень пригодилось в работе.



В течение ряда лет в структуре УВДТ она занимала различные должности, среди которых: начальник отделения по детской безопасности аэропорта «Ташкент», старший инспектор профилактики по обеспечению безопасности объектов аэропорта. На всех участках Э. Орловцева

проявляла профессионализм, заслужив уважение тех, кто имел честь с ней работать. Сегодня талантливые ученики и последователи Элеоноры Григорьевны успешно продолжают дело мудрого и доброго наставника, так много сделавшего для родной страны.

В 1997 году Э. Орловцева вышла на заслуженный отдых, но продолжила активную деятельность, воспитывая молодое поколение правоохранителей.

– Хочу сказать, что в силу характера во мне весьма развито чувство ответственности за судьбы юной и девушек, решивших посвятить себя службе в органах правопорядка, – говорит Элеонора Григорьевна. – Нынешнее время ставит перед ними новые задачи, в решении которых необходимо прилагать максимум знаний, навыков и мастерства. Являюсь членом женсовета Департамента по обеспечению безопасности на объектах транспорта и туризма МВД республики. Под началом председателя Совета ветеранов Департамента, Абдумалика Мамадиярова, активно работаем в направлении женских вопросов, сообща решаем проблемы, поставив во главу угла значимость и огромную самоотдачу наших уважаемых сотрудниц в деле правоохраны.

Для плодотворной работы созданы все необходимые условия, мы много общаемся с девушками, недавно пришедшими в службу, делимся опытом, помогаем и словом, и делом.

Помимо работы, есть у Э. Орловцевой увлечение, которому она уделяет свободное время. Это книги, чтение которых преображает душу, пробуждает фантазию, уносит в мир приключений. Элеонора Григорьевна отдает должное различным литературным жанрам. Помимо литературы ее также привлекают музыка, театр, при возможности старается посетить ту или иную театральную премьеру.

С супругом, Борисом Орловцевым, она живет полной, насыщенной жизнью, души не чая во внучке Анне. Что еще нужно для семейного счастья?

– Люблю нашу страну, замечательный многонациональный народ, щедрую землю, – говорит Э. Орловцева. – Под чутким руководством Президента Узбекистана Шавката Мирзиёева мы уверенно идем к поставленным целям. Все у нас получится, потому что мы сильны духом, никогда не свернем с верного пути!

Георгий ПЕТРОСЯН,
корреспондент
«На посту».

■ Сырдарьинская область

РЕЗУЛЬТАТ СОВМЕСТНОЙ РАБОТЫ

В махалле Бекат Баяутского района проживают около четырех тысяч человек. Инвесторов привлекает то, что она расположена близ областного центра. Здесь действует целый ряд предприятий, развита дорожно-транспортная инфраструктура, хорошее водо-, газо- и электро-снабжение.

В махалле эффективно функционирует пункт правопорядка, где созданы условия для совместной деятельности инспекторов профилактики, сотрудников Национальной гвардии, инспектора-психолога, актива МСГ.

На территории установлено 165 камер видеонаблюдения. Одно только предприятие «New York Center» имеет 60 таких устройств.



Подавляющее большинство камер интегрировано с компьютером пункта правопорядка, что способствует предупреждению правонарушений.

В Бекат осуществляется целенаправленная деятельность по укреплению среди жителей атмосферы

нетерпимости к любым проявлениям правонарушений. Инспекторы профилактики во взаимодействии с коллегами из иных отраслевых служб ОВД ведут работу с лицами, склонными к совершению правонарушений, неблагополучными семьями, молодежью. На базе пункта пра-

вопорядка регулярно организуются встречи, на которые приглашаются старейшины махалли, педагоги. За прошедший период нынешнего года проведено более семидесяти таких встреч.

... В доме, куда Б. Н. пришла невесткой, участились ссоры. Во многом они были связаны с конфликтом, возникшим между свекровью и невесткой. Сотрудники ОВД района, инспектор профилактики пригласили членов семьи в пункт правопорядка. В результате бесед, проходивших с участием квалифицированного психолога, конфликт постепенно сошел на нет. Семья вернулась к мирной, спокойной жизни.

Примечательно, что за истекший период текущего года в махалле не допущено совершения ни одного преступления. Это – результат слаженной работы.

Бахром ХАКИМОВ,
капитан.



9-aprel – Sohibqiron Amir Temur tug'ilgan kun

AMIR TEMUR SHE'R BITGANMI?

Sohibqiron Amir Temur buyuk sarkarda va siyosatchi bo'lishi barobarida, madaniyat, ilm-fan va adabiyotning ulug' homiysi sifatida tarixda qoldi. Amir Temur va temuriylar davrida turkiy til va adabiyot yuksak cho'qqilarga ko'tarildi. O'nlab buyuk shoirlar yetishib chiqdi, yuzlab bebaho durdonalar yaratildi.

Alisher Navoiy «Majolisun-nafois» asarida ko'plab hukmdorlar orasida Amir Temurni birinchi bo'lib tilga olgan, ya'ni «Agarchi bu ulug' zot she'r yozmagan bo'lsa-da, u aytgan har bir bayt ming baytga teng» deb lutf qilgandi.

SHAYX QO'RQQANIDAN QUR'ONGA CHANG SOLDI

Navoiy yuqoridagi fikrning isboti sifatida quyidagi voqeani misol keltiradi.

Amir Temur zamonasida mashhur mutasavvif olim Abu Said Abulxayrning bir she'ri juda shuhrat qozongan, hatto bu ruboiyning g'ayrioddiy xususiyatlari

haqida gap-so'zlar tildan-tilga ko'chib yurardi.

Bu ruboiyning sharhi xususida keyinchalik Xoja Ahrori Valiy o'zining «Havroiya» nomli qasidasini ham bitgan edi. Mana o'sha ruboiy:

Havro ba nazorai nigoram saf zad,
Yak xoli siyah bar on ruxon
mutraf zad,
Rizvon ba ajab bimondu kaf
bar kaf zad
Abdol zi biym chang bar
mushaf zad.

(Ma'nosi: hurlar nigorimni tomosha qilish uchun saf tortishdi. Bir qora xol ularning yuzlariga parda tortdi. Jannat ham hayratda qolib, kaftini kaftiga urdi. Pir qo'rqqanidan Qur'onga chang soldi.)

Bu ruboiydan o'z vaqtida Amir Temur ham xabardor bo'lgan.

O'sha paytlarda Ozarboyjon boshqaruvi Amir Temurning ikkinchi o'g'li Mironshoh Mirzoga topshirilgan. Biroq Mironshohning ichkilikka mukkasidan ketishi davlat ishlariga ta'sir ko'rsata boshladi. Uning g'alati qiliqlari haqidagi gap-so'zlar Samarqandga ham yetib keldi. Sohibqiron Mironshohning ichkilikka berilishiga uch kishining sababchi ekani yetkazildi. Amir Temur uchovining ham boshini olishni amr qildi. Mulozimlar ulardan ikki nafarini tutib qatl qilishdi. Ammo uchinchi – Xoja Abdulqodir



o'zini devonalikka solib darbadarlikni ixtiyor qildi.

Sohibqiron Iroqqa yurish qilganida, Xojaning shu atrofda yurganini xabar qilishdi. Nihoyat uni qo'lga olib, podshoh huzuriga olib kelishdi. Xoja Abdulqodir o'z vaqtida Qur'on qiroati bilan ham shuhrat qozongan bo'lib, uning go'zal ovozi bor edi.

Podshohning huzuriga olib kelishlari bilan u qo'rqqanidan nima qilayotganini bilmay, Qur'on oyatlarini tilovat qilishga tushdi. Bu holatni ko'rgan sohibqiron kulib yubordi va o'sha mashhur ruboiyning oxirgi misrasini aytdi: Abdol zi biym chang bar mushaf zad, ya'ni, pir qo'rqqanidan Qur'onga chang soldi.

Garchi falsafiy ma'noga ega bo'lgan bu ruboiyda ushbu misra boshqacha ma'noga ega bo'lsa-da, Amir Temur uni zakiylik bilan o'z o'rnida ishlatgan, buni Navoiy «yilda bir, asrda bir yuz beradigan hodisa» sifatida baholagan edi.

SHOIR VA FOTIH UCHRASHUVI

Xuroson ustiga qilgan fath yurishlaridan birida Sohibqiron fors mamlakatining poytaxti Sherozni ham oladi. Bu shaharda jahonga mashhur fors shoiri, Hofiz Sheroziy istiqomat qilardi. Shoirning:




«Agar ko'nglim shod etsa, o'shal Sheroz jononi, Qaro xoliga baxsh etgum Samarqand-u Buxoroni» satrlari jahonga tarqalib ketgan edi.

Aytishlaricha, Amir Temur Sherozda shoirni o'z huzuriga chaqirtiradi va unga g'azab bilan: «Men yer kurrasining juda katta qismini bo'ysundirdim va o'z hukumatim o'rnatgan qadrdon shaharlarim Samarqand-u Buxoroni obod qilish uchun topgan-tutganimni aya-madim, sen esa har ikkovini bir qizning qora xoliga berib yubormoqchimisani?» deydi. Shunda Hofiz Sheroziy qo'l

qovushtirib turib: «A'lohazrat, shunaqa qo'li ochiqligimdan o'zingiz ko'rib turgan gadolik holiga tushdim-da», deb javob qiladi. Bu javob sohibqironga ma'qul bo'ladi va shoirga qimmatbaho sovg'alar hadya qiladi.

Ana shu misollarning o'zi ham Amir Temurning she'riy iqtidoriga egaligi, she'riyatga, shoirlarga, adabiyot ahliga alohida g'amxo'rlik ko'rsatganidan darak beradi.

Rustam JABBOROV,
filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori.



...QAYTADUR BIR KUN ANGA

Amir Temur fors va arab tillarini puxta bilsa-da, ona tili – turkiy tilni ardoqlar, ko'pgina nomalari, farmonlari, tarixiy kitoblari shu tilda bitar edi. Ma'lumotlarga ko'ra, uning tarjimai holi va o'g'itlarini o'z ichiga olgan «Temur tuzuklari» asari ham dastavval turkiy tilda bitilgan, keyinchalik Boburiylar saroyida forschaga o'g'irilgan.

Ma'lumki, Sohibqiron dastlab ittifoqchisi bo'lgan Amir Husaynning ochiqchasi-ga qilgan xiyonati sabab 1365-yilda Chinoz yaqinida yuz bergan «Loy» jangida mo'g'ullarga yengilgan edi.

Bu Husaynning Amir Temurga yagona xiyonati emasdi, Amir Husayn bilan markazlashgan davlat barpo etish maqsadida yurgan kezlari ham ular orasiga

nifoq tushadi. Shunday og'ir bir vaziyatda Amir Husayn Amir Temurni o'ldirishni rejalashtirib, unga «do'stlik va qardoshlikni» taklif etadi va Qur'onni qo'lga olib qasam ichadi. Va uni Temurga yuborib, elchi orqali «o'rtadagi ahd-u paymoni-mizni yangilasak, xudo haqqi, durust bo'lur edi», deb Chakchek darasida uchrashishni taklif etadi.

Amir Husaynning niyati qora edi. U Amir Temurni o'ldirmoqchi, yo'lidagi asosiy va birdan-bir «g'ov»ni olib tashlamoqchi edi. Buni Amir Temur juda yaxshi tushunib turardi. Shunday bo'lsa-da, Qur'on hurmatini saqlab, aytilgan joyga boradi. Lekin ehtiyot chorasi bilan ikki yuz otligni o'sha yerga maxfiy joylashtiradi. Bundan bexabar Amir Husayn ming navkari bilan Amir Temur

ustiga to'satdan hujum qiladi. Lekin Oллоhning irodasi bilan Amir Temur g'alaba qozonadi. Shunda sarkarda Amir Husaynga ushbu mazmunda turkiy bayt yozib yuboradi:

Yorga yetkur sabo, kim
makr qilmishdur manga,
Qildi ersa kimga makrin,
qaytadir bir kun anga.

Ya'ni, kim menga makr-hiyla qilsa, sabo (tong shamoli) uni yorga (ya'ni, Oллоhga) yetkazadi. Kim-kimga makr-hiyla qilsa, bir kun o'ziga qaytadi, Ro'zi Mahsharda javob beradi.

Bunday sermazmun va serjilo baytni bitish uchun yuksak tafakkur va katta ma'naviy salohiyat sohibi bo'lish kerak. Binobarin, sohibqiron Amir Temur ana shunday ulug' hofiza va aql-zakovat sohibi edi.



Tuman IIBda

MAHALLALARDA OSOYISHTALIK HUKMRON

Sharof Rashidov tumanining umumiy yer maydoni 1,32 ming kilometr kvadratni tashkil etadi. 231,8 ming kishi istiqomat qiladigan aholi punktlari tekislik, dasht va tog'larda joylashgan. Jizzax shahri, Baxmal, G'allaorol, Forish, Zafarobod, Paxtakor, Zarbdor, Zomin tumanlari bilan chegaradosh. Hududan Toshkent – Termiz M-39 avtomobil yo'li va yana temiryo'llar o'tgan.

Mazkur jihatlar tumanda huquqbuzarliklar profilaktikasi hamda jamoat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni samarali tashkil etishni taqozo etadi. Shu bois huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish maqsadida aholi gavjum joylar, yo'l kesishmalari, korxonalar, tashkilot, o'quv muas-

sasalari, xizmat ko'rsatish va ovqatlanish shoxobchalariga kuzatuv kameralari o'rnatish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Profilaktika inspektorlari tomonidan joriy yilning o'tgan davrida 810 ta ma'muriy huquqbuzarlik aniqlandi, 44 ta jinoyat fosh etildi. Bundan tashqari, 52 kishi ma'muriy nazoratga olindi.

Jinoyatchilikka qarshi kurashda mahalla fuqarolar yig'inlari faollari bilan yaqin hamkorlik o'z natijasini bermasdan qolmayapti. 2022-yilning birinchi choragini joriy yilning o'tgan davri bilan qiyoslaganda umumiy jinoyatchilikni 9,4 foizga kamaytirishga erishdik. Muqaddam sudlangan shaxslar jinoyati 42,8 foizga qisqardi. Ko'chalarida hamda voyaga yetmaganlar ishtirokida jinoyatlar sodir etilishiga yo'l qo'yilmadi. Umuman olganda, tumanimizdagi 48 ta mahallaning 41 tasida jinoyat qayd etilmadi.



Yanada ijobiy ko'rsatkichlarga erishish maqsadida «Xavfsiz hudud» profilaktik tadbirlari doirasida muqaddam sudlangan, ichki ishlar organlarida hisobda turgan, probatsiya xizmati nazorati ostida bo'lgan shaxslarning muam-

molari o'rganilib, ularni hal etish choralari ko'rilayotir. Shu bilan birga, targ'ibot tadbirlari muntazam uyushtirilmoqda.

Valijon FAYZULLAYEV,
kapitan.

Jizzax viloyati.

Inson qadri uchun

YUTUQLARNING ASOSIY MEZONI

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida eng avvalo inson qadri uchun ulug'lash, farovon turmush kechirishini ta'minlashdek hayotbaxsh g'oya mujassam. Bugun ana shu ezgu maqsad yo'lida turli idoralar o'zaro hamkorlik qilayotganiga guvoh bo'lasiz.

Fikrimizni IIV huzuridagi JIED Beshinchi mintaqaviy muvofiqlashtirish markazi tasarrufidagi jazoni ijro etish muassasalari misolida davom ettirsak. Mazkur muassasalarda jazo muddatini o'tayotgan shaxslarni qayta tarbiyalash, kasb-hunarga o'rgatish, ozodlikka chiqqach jamiyatga oson

moslashuvini ta'minlashda viloyatdagi mas'ul idora va tashkilotlar vakillari soha xodimlariga kamarbasta bo'lmoqda.

Birgina misol, Respublika «Hunarmand» uyushmasining Navoiy viloyat bo'limi bilan birgalikda jazoni ijro etish muassasalarida «Usta-shogird» maktablari



tashkil etilgan. Joriy yilning birinchi choragi davomida mazkur maktablarda o'qitilgan 142 nafar mahkumga mutaxassisliklari bo'yicha sertifikatlar topshirildi.

Bundan tashqari, joriy yilda Ombudsmanning Navoiy viloyatidagi mintaqaviy vakili bilan hamkorlikda jazo muddatini o'tayotgan shaxslarni tarbiyalash, o'z iqtidori va iste'dodini namoyon etishlariga zarur shart-sharoitlar yaratish, kutubxona fondini eng so'nggi badiiy adabiyotlar bilan boyitish borasi-

da yangi tashabbusga qo'l urildi. Ayni paytda hamkor tashkilotlarning malakali mutaxassislari, imom-xatiblar ishtirokida turli tadbirlar o'tkazilyapti. Jumladan, jazo muddatini o'tayotgan shaxslarning huquqiy madaniyati va ma'naviyatini yuksaltirish, ular ongida sodir etgan jinoyatidan pushaymonlik hissini qaror toptirish, milliy qadriyat va urfodatlarimizni targ'ib qilish, terrorizm va ekstremizmning jirkanch oqibatlaridan ogohlantirish, kitobxonlikka undashga qaratilgan turli tadbirlar, konsert dasturlari tashkil etib kelinmoqda.

Jazoni ijro etish departamenti rahbariyati, mintaqaviy muvofiqlashtirish

markazi va muassasalar boshliqlari tomonidan mahkumlarning muammolarini o'rganib, hal etish yuzasidan sayyor qabullar o'tkazilib kelinayapti. Ushbu tadbirlarda prokuror, sudya va Ombudsmanning Navoiy viloyatidagi mintaqaviy vakili ham ishtirok etyapti. Mahkumlar sayyor qabul davomidayoq tashrif buyurgan mutasaddi idora vakilidan o'z murojaatiga yechim topmoqda.

Kezi kelganda shuni alohida ta'kidlash joizki, muassasalarning asosiy maqsadi jinoyat sodir qilganlarni tarbiyalash. Shu bois malakali huquqshunoslar, viloyat IIB, Adliya boshqarmasi xodimlari, sudyalari, Ombudsmanning viloyatdagi mintaqaviy vakili, oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari ishtirokida o'quv-seminarlari tashkil etilib, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samarasi va ta'sirchanligi oshirilmoqda.

Shuhrat JO'RAYEV,
Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman)ning Navoiy viloyati bo'yicha mintaqaviy vakili.
Abduhoshim ZIYODINOV,
mayor.



МЕСТО ВЕРЫ И УБЕЖДЕНИЙ В ДУХОВНОСТИ

«Если экономика – организм, обеспечивающий жизнедеятельность общества, то духовность – его сердце и душа».

Шавкат МИРЗИЁЕВ.

Духовность человека многие связывают с религиозностью, но у этого понятия более глубокий смысл, который охватывает самые различные грани человеческой натуры. Следует признать, что духовные люди живут более насыщенно и интересно, а кроме того, делают такой и жизнь окружающих. Духовным человек не рождается, а становится, и это качество можно развить в себе. Но прежде надо осознать, что это такое, как проявляется духовность.

Рано или поздно каждый человек, хотя бы в отдельные моменты жизни начинает задумываться над смыслом своего существования и духовного развития. Человек достигает вершин своего развития только в процессе культуры, и лишь в ней находят выражение самые высокие стремления и возможности.

Духовный мир личности представляет собой особую, индивидуальную, неповторимую форму проявления, существования. Философы Древней Греции называли внутренний, духовный мир человека «микрокосмом», в отличие от «большого мира» – «космоса», который окружает и самого человека, и населенную человечеством область вселенной.

Наши великие предки, мыслители, поэты и историки Востока нередко отождествляли духовный мир с душой. Представление о душе характеризовалось как вера в то, что наши мысли, воля, чувства, сама жизнь обуславливаются чем-то отличным от тела, хотя с ним и связанным. Много позже, в европейской философии, термин «душа» стал употребляться для обозначения внутреннего мира человека, его самосознания.

Сущность духовного мира человека определяли и словом «дух» как человеческое измерение, человеческий разум. Затем в научный обиход вошло понятие «духовная жизнь людей», которая охватывает богатство человеческих чувств и достижений разума, объединяет как усвоение накопленных духовных ценностей, так и творческое созидание новых.

Человек, у которого развита духовная жизнь, обладает, как правило, важным личностным качеством: он приобретает духовность как стремление к высоте своих идеалов и помыслов, определяющих направленность всей деятельности. Духовность предполагает следование гуманисти-

ческим ценностям ориентирам, душевность, дружелюбие в отношениях между людьми.

В процессе внутренней жизни человек осмысливает сделанное и обдумывает новые действия для осуществления своих целей. К духовной жизни относятся: знания, веру, чувства, потребности, способности, стремления. Духовная жизнь невозможна без переживаний: радости, оптимизма или уныния, веры или разочарования. Человеку свойственно стремление к самопознанию и самосовершенствованию.

Чем более развит человек, чем выше его культура, тем богаче его духовная жизнь. Диапазон духовной культуры, накопленной



ное накопление, расширение и углубление знаний об окружающем мире, происходит не только отбор необходимых знаний, но и жизненных установок, определяющих характер осознания личностью своего места в мире и отношения к нему. Эти особенности духовного мира находят выражение в вере и убеждениях.

Убеждения – это такое состояние ума, когда мы считаем что-то

Стоунхедж, Будда Бамиана, собор Альмудена в Мадриде, Улуру в Алис-Спрингс, Бахайские сады в Хайфе, Фудзияма, священная гора Японии, Кааба в Саудовской Аравии – все они воплощают человеческий опыт духовности, отражают как объективную реальность, так и итог стремления человека к объяснению смысла жизни и нашей роли в мире.

Следует отметить, что в нашей стране такие понятия, как духовность, вера, убеждения имеют самое непосредственное значение в формировании облика страны.

За годы независимости в Узбекистане возрождены добрые традиции и обычаи народа, религиозные ценности. Всенародным праздником стал Навруз, а также священные национальные праздники Рамазан и Курбан хайит. В Узбекистане высоко ценится религия предков – ислам, являющаяся для народа и верой, и совестью, и основой духовного просветительства. Вместе с тем создаются условия для развития языка, культуры, обычаев и традиций всех проживающих в республике наций и народностей.

Исходя из этого жизненного принципа, стоит напомнить слова главы нашего государства Шавката Мирзиёева о том, что для построения Нового Узбекистана мы опираемся на два крепких кита: сильную экономику, основанную на рыночных принципах, и богатое наследие наших предков, сильную духовность, основанную на национальных и общечеловеческих идеях. Духовность является той основой, которая определяет содержание и качество всех политических и социальных отношений в обществе. Чем прочнее будет этот фундамент, тем сильнее будет наш народ и государство.

Георгий ПЕТРОСЯН,
корреспондент «На посту».



человечеством, дает каждому человеку практически неограниченную возможность выбора духовных ценностей, наиболее отвечающих его установкам, вкусам, способностям и условиям жизни.

Характеристика духовной культуры человека не может быть полной, если в ней не затрагивается его нравственный облик. Хорошо, когда человек стремится к знаниям, повышает уровень развития своего интеллекта. Однако важно знать и то, на что направлены эти знания, в какой мере связаны они с гуманистическими целями.

В процессе жизнедеятельности у человека происходит непрерыв-

верным, даже если мы не уверены, что сможем это доказать. Каждый человек имеет убеждения, касающиеся жизни и того мира, в котором он живет. Убеждения, которые взаимно поддерживают друг друга, представляют собой систему убеждений, которая может быть религиозной, философской или идеологической.

Вера в духовное измерение жизни существовала с незапамятных времен. Многие человеческие общества оставили нам свидетельства их системы веры, будь то поклонение Солнцу, богам и богиням, познание добра и зла или же понятие священного.

АСОСИЙ ВАЗИФА – ТЕЗДА АНИҚЛАШ ВА ФОШ ЭТИШ



Сергели тумани ИИОФМБ тезкор-қидирув хизмати ва эксперт-криминалистика бўлими ходимлари ҳудудда фуқароларнинг ҳаёти, соғлиғи, ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларига дахл қилувчи жиноятларнинг олдини олиш, аниқлаш ва фош этиш, терроризм ва экстремизм, уюшган жиноятчиликка қарши курашиш борасида зарур тадбирларни амалга ошириб келмоқда.

– Жорий йил бошидан буён туман миқёсида содир этилган жиноятларнинг 94 фоизга яқини очилган, – дейди туман ИИОФМБ Тезкор-қидирув хизмати ЖҚБ бўлинма бошлиғи, подполковник Даврон Ўктамов.

Тезкор-қидирув хизмати ходимлари жиноятларнинг келиб чиқиш сабабларини ўрганиб, таҳлил қилиб, келгусида йўл қўймаслик чораларини кўриб боришади.

Таҳлиллар шуни кўрсатдики, безорилик ва тан жароҳати етказиш жиноятлари асосан тунги вақтда, жамоат жойларида содир бўлмоқда. Шу сабабли, биринчи навбатда, туманда фаолият олиб бораётган тунги кўнгилочар масканлар, спиртли ичимликлар савдоси билан шуғулланувчи дўконлар фаолияти бўйича огоҳлантирув ишлари ҳамда совуқ қурол билан тан жароҳати етказиш

ҳолатларининг олдини олиш мақсадида соҳавий хизматлар билан биргаликда «Тиф» профилактик-огоҳлантирув тадбирлари ўтказиб келинмоқда.

Туман ИИОФМБ ЖҚБ психолог-инспектори, ёшлар масалалари билан ишлаш инспекторлари ҳамда бошқа давлат органлари, жамоат бирлашмалари вакиллари билан ҳамкорликда



тарбияси оғир, ҳуқуқбузарлик содир этишга мойил, оилавий муҳити салбий томонга ўзгарган, кучли таъсир этувчи дори воситалари ва психотроп воситаларни истеъмол қилувчи вояга етмаганлар, уларнинг ота-оналари ўртасида суҳбатлар ўтказилиб, профилактик тушунтириш ишлари олиб борилмоқда.



Сарвар СОБИРОВ,
«Postda» мухбири.

Тошкент шаҳри.

Соҳа фидоилари

МАЛАКАЛИ МУТАХАССИС, СЕРФАРЗАНД ОТА

Навоий вилояти ИИБ Ҳарбий сафарбарлик бўлими бошлиғи, майор Шухрат Ражабов қарийб 15 йиллик тажрибага эга. Асосий вазифаси бошқарманинг қуйи тузилмалари, бўлим ва бўлинмалари шахсий таркибини ҳарбий сафарбарлик топшириқларини бажаришга тайёрлашдир. Шу мақсадда ходимлар билан тегишли режалар бўйича амалий машғулотлар ташкил этади. Яқиндагина навбатдаги машғулотни юқори савияда ўтказди.



У фуқаро муҳофазаси ва жанговар шайлик ҳолатини доимий равишда текшириб боради. Масъулиятли вазифасини сидқидилдан бажариб келаётгани боис раҳбариятнинг ишончига сазовор бўлди,

ҳамкасблари орасида обрў-эътибор қозонди.

Қаҳрамонимиз оилада ёлғиз фарзанд эди. Болаликда ўзининг ака-укалари, опа-сингиллари бўлишини жуда-жуда хоҳларди.

Жорий йил Наврўз байрами арафасида – «Меҳрибонлик уйи» тарбияланувчиларидан уч нафарини фарзандликка олди.

– Аввалига озроқ чўчидим. Сабаби, ўзимнинг ҳам икки на-

фар фарзандим бор. Оиламизга улардан каттароқ ёшдаги болаларни қабул қилаётган эдим. Улар ўсмирлик палласини, яъни ўтиш даврини бошдан кечиряпти. Шунинг учун ҳар бири билан муносабатда жуда эҳтиёткор бўлиш керак, – дейди майор Шухрат Ражабов. – Мен ва аёлим уларга фарзандларимиз қаторида меҳр кўрсатишга ҳаракат қиляпмиз. Бу борада бой ҳаётини тажрибага эга бўлган ота-онам яқиндан ёрдам беришяпти.

– Аллоҳга беҳисоб шукурлар бўлсинки, набираларимнинг сони беш нафарга етди, – дейди қаҳрамонимизнинг отаси Баҳриддин ака Ражабов. – Савобли амалларни имконияти бор ҳар бир инсон қилиши керак, деб ўйлайман.

Маҳлиё ХОЛОВА,
«Postda» мухбири.

Навоий вилояти.



■ Buxoro viloyati

JAHOLATGA QARSHI MA'RIFAT TADBIRLARI

Yoshlarda sog'lom va so-bit e'tiqodni shakllantirish, bu yo'ldagi ham nazariy, ham amaliy ishlarining ta'sirchanligini oshirish borasida viloyat IIB TQX TQKB va uning joylardagi bo'linmalari xodimlari tomonidan, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar hamda keng jamoatchilik vakillari hamkorligida targ'ibot tadbirlari o'tkazib kelinmoqda. Ya'ni, terrorizm, ekstremizm, noislomiy va norasmiy tashkilotlarning noqonuniy faoliyatiga qarshi kurashish maqsadida viloyatdagi oliygohlar, kasb-hunar va umumta'lim maktablarida har hafta «Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni» doirasida «Jaholatga qarshi ma'rifat» mavzusida profilaktik suhbatlar o'tkazilib, ko'rgazmali ko'rinishlar namoyish etilmoqda.

Jumladan, Qorovulbozor tumanidagi 17-sonli JIEMda navbatdagi umumiy profilaktik targ'ibot tadbiri o'tkazildi. Unda so'zga chiqqanlar mahkumlarga yurtimizda amalga oshirilayotgan ijobiy islohotlar, jumladan, diniy erkinliklar, fuqarolarning yashash sharoitini yaxshilash borasida



mamlakatimizda «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi qonunga asosan, fuqarolarning diniy erkinligini ta'minlash, ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar mazmun-mohiyati tushuntirilib, turli buzg'unchi oqimlarga adashib kirib qolayotgan yoshlarni noto'g'ri yo'ldan qaytarish, oldini olish choralari to'g'risida mulohazalar aytiladi.

Buxoro shahar IIOFMB TQKB xodimlari tomonidan Buxoro davlat universitetida talabalarning ota-onalari bilan «Ekstremizm va terrorizm – jamiyat taraqqiyotiga tahdid» mavzusida targ'ibot-tushuntirish ishlari olib borildi.



qilinayotgan keng ko'lamlı ishlar, muassasada ichki tartib-qoidalarga rioya qilish, yot g'oyalardan saqlanish, adashib noto'g'ri yo'lga kirib qolganlarning to'g'ri yo'lga qaytishi bo'yicha fikr-mulohazalar bildirishdi.

Xuddi shunday, Jondor tumani 2-sonli kasb-hunar kollejida viloyat hokimining jamoat va diniy tashkilotlar bilan aloqalar bo'yicha o'rinbosari E.Majidov rahbarligida tumandagi diniy idora vakillari, otinoyilar va xotin-qizlar faollari ishtirokida profilaktik targ'ibot tadbiri o'tkazildi. Mazkur tadbirda

Tadbir davomida telefon apparatida ekstremistik g'oyalar bilan yo'g'rilgan diniy mazmundagi materiallarni saqlash, tarqatish uchun qonunda belgilab qo'yilgan jazo choralari bo'yicha tushunchalar berildi.

Kogon shahar IIB TQKG xodimlari tomonidan shahardagi 2-sonli umumta'lim maktabida o'tkazilgan davra suhbatida esa «Telegram», «Instagram», «Google» va hokazo messenjerlardan foydalanishda faqatgina kerakli, milliy xususiyatlarimizga zid bo'lmagan, diniy buzg'un-

chilikka yo'g'rilmagan ma'lumotlarni filtrlab olish immunitetini shakllantirish omillari, xususan, taqiqlangan ekstremistik, terroristik saytlar hamda materiallar haqida aytib o'tildi.

Shuningdek, Romitan tumanidagi 1-sonli kasb-hunar maktabida «Yoshlarda buzg'unchi ekstremistik oqim g'oyalariga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish, internet ijtimoiy tarmog'idan to'g'ri foydalanish», Peshku tumani «Chig'irchi» mahallasida «Internet tarmog'idan to'g'ri foydalanish, terrorizm, ekstremizm va aqidaparastlikning zararli oqibatlarini», Shofirkon tumani 3-sonli umumta'lim maktabida «Maxsus diniy bilim ega bo'lmay turib diniy ta'lim bermaslik, davlat ro'yxatidan o'tgan muassasalarda diniy ta'lim olish to'g'risida», Qorako'l tumani pedagogika kollejida «Yoshlarda buzg'unchi g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish», Olot tumanidagi 11-sonli umumta'lim maktabida «Chet elda ekstremistik oqimlar ta'siriga tushib qolmaslik, taqiqlangan tashkilotlar safiga qo'shilmasslik» mavzularida targ'ibot tadbirlari amalga oshirildi. Bundan tashqari, Buxoro tumanidagi 49-sonli, Vobkent tumanidagi 42-sonli, Kogon tumanidagi 5-sonli, G'ijduvon tumanidagi 60-sonli maktab o'quvchilari va ota-onalar bilan shu mavzularda davra suhbatlari o'tkazildi. Tadbirlarda dunyo hamjamiyatida sodir bo'layotgan voqealar xususida tushunchalar berilib, yanada hushyor bo'lish, har bir fuqaro beparvo bo'lmasligi, vatanparvarlik, Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish kabi tuyg'ular bilan yashash tushuntirildi.

Bobirxo'ja SHARIPOV,
podpolkovnik.



Ma'nolar maxzani

OBOD QILGAN – OBOD BO'LADI

Bu bilan: «Hovli-joyingni, yurtningni obod qilsang, ko'rkam binolar, chiroyli ko'chalar, gullab-yashnagan bog'-rog'lar barpo etsang, avvalo, turmush sharoitlaring yaxshi, qulay, dilrabo bo'ladi; o'z qilgan ishingning ajoyib mevasini, samarasini ko'rib, diling ravshan tortadi, qalbingda faxr-u g'urur hissiyotlari paydo bo'ladi; el-yurt o'rtasida bosh ko'tarib, yorug' yuz bilan, obro'-e'tibor bilan yurasan; hayotdan ko'z yumgan chog'ingda ham, noming yaxshilik ila tilga olinadigan bo'lib qoladi», degan ma'noda nasihat qiladilar.

YOMG'IR – MARDIKORNING DUSHMANI

Ma'lumki, o'tmishda (hozir ham) bировga qisqa muddatga (bir yo bir necha kunga) yollanib ishlaydiganlarni «mardikor» derdilar. Mardikorlar har kuni mardikor bozoriga borib, ish topib, o'z tirikchiliklarini o'tkazardilar. Maqolda «Yomg'ir mardikorning dushmani» deyilishining boisi shu ediki, qor-yomg'ir yoqqan kunlari ishi bor odamlar bozorga kamdan-kam tushadilar, natijada mardikorlar ishsiz, demakki, pulsiz, mablag'siz qoladilar.

GAP KO'P, KO'MIR OZ

O'tmishda uzundan-uzoq qish kechalarida qo'ni-qo'shnilar, yor-do'stlar bir uyga yig'ilib, tancha atrofiga o'tirib olib, gurunglashardilar. Shunda suhbat haddan tashqari cho'zilib ketsa, uy egasi yoxud suhbatdoshlardan biri yarim hazil, yarim chin qilib: «Yetar endi, vaqt ham allamahal bo'ldi, uy-uylaringizga jo'nangiz», degan ma'noda mazkur maqolni aytardi. Bu maqol asli «Gap ko'p-ku, umr oz» shaklida bo'lgan bo'lishi ham mumkin. Keyinchalik gap nihoyatda cho'zilib ketgan paytda aytiladigan bo'lgan.

GADOY ARAZLASA – TO'RVASIGA ZIYON

Majoziy ma'nosi: «Birov senga bir nima bermoqchi bo'lsa-yu, sen u narasani kam deb bilsang, mensimasang, takabburlik qilsang, arazlasang, u odam bermaydi-qo'yadi, qaytaga o'z rizqingni o'zing qiyasan, xolos», deyilmoqchi.



■ г. Ташкент

«НАША ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ТРЕБУЕТ ПРЕДЕЛЬНОГО ВНИМАНИЯ»

За плечами старшего сержанта Антонины Умновой почти 25 лет стажа трудовой деятельности в подразделениях ГУВД. На сегодняшний день она добросовестно служит на должности начальника канцелярии экспертно-криминалистического центра.



Деятельность канцелярии связана с большим числом документов. Подразделение ответственно за соблюдение надлежащего порядка их учета, прохождения, контроля исполнения, текущего хранения.

Благодаря грамотной организации А. Умновой работы, поступающие документы своевременно регистрируются, после чего распределяются по отделам.

Заключения экспертов проходят процедуру исходящей регистрации, направляются по подведомственности – в подразделения следствия, уголовного розыска, органы прокуратуры и т. д.

Сотрудники ЭКО УКД ОВД районов при возникновении

вопросов по оформлению тех или иных документов обращаются к Антонине Валерьевне, которая всегда готова дать дельный совет.

– Наша деятельность требует предельного внимания, скрупулезности даже в мелочах, – подчеркивает А. Умнова. – Работа для

меня – превыше всего. Даже дома, занимаясь делами, думаю о том, все ли я сделала, не упустила ли чего. По-другому никак не могу... Мой первый наставник – подполковник Лидия Босова. Она служила в штабе ГУВД, была не только отзывчивым человеком, но и профессионалом своего дела. «Глядя на твою работу, у людей будет складываться мнение о тебе», – говорила она.

Сегодня героиня очерка сама является наставником, щедро делится накопленным опытом с молодыми специалистами. Антонина Валерьевна не устает повторять ученикам, что добиться успеха можно только трудом, целеустремленностью и большим терпением.

Бибигуль МУРТАЗАЕВА.



Jinoyatga jazo muqarrar

Payariqlik Rustamning (ism-shariflar o'zgartirildi) plastik kartasidagi pullari o'z-o'zidan yo'qola boshladi... U 2022-yilning oktabr oyidan 2023-yil fevral oyiga qadar bo'lgan vaqt oralig'ida sakkiz yarim milliondan ortiq pullari o'g'irlanganligini ma'lum qilib, tuman IIBga ariza bilan murojaat etdi.

Ushbu murojaatga asosan, Samarqand viloyati IIB Tezkor-qidiruv xizmati Kiberxavfsizlik bo'limi xodimlari tomonidan olib borilgan qidiruv ishlari natijasida mazkur o'g'irlik jinoyati tez fursatda fosh etildi. Rustamning pullarini o'zi bilan sakkiz yildan buyon birga ishlayotgan hamkasbi, nurobodlik Alisher o'g'irlagani ma'lum bo'ldi.

Aniqlanishicha, Rustamning plastik kartasi doim telefonining orqasida turgan. Buni bilgan Alisher payt poylab, uning plastik raqamini olgan va internetdan Zoomrad ilovasini yuklab, shu orqali hamkasbining pullarini sezdirmaslik uchun avval ayolining, keyin o'zining plastik kartasiga o'tkazib olgan. Osonlik bilan qo'lga kiritgan pullarining bir qismini internetdagi tavakkalchilikka asoslangan onlayn qimor o'yinlariga, qolganini shaxsiy ehtiyojlariga ishlatgan.

Alisher tayyor pul qutqasida «Qing'ir ishning qiyig'i qirq yildan keyin ham chiqadi», degan xalq maqolini unutilib qo'yadi. Aks holda, hamkasbining halol ishlab topgan pullariga ko'z olaytirmas, jamoadoshlari orasida yuzi qora bo'lmasdi.

QING'IR ISHNING QIYIG'I
yoxud o'zingga ehtiyot bo'l...

Bugungi kunda butun dunyoda, xususan, yurtimizda ham ijtimoiy tarmoqlarda firibgarlik va uning turlari kundan-kunga ko'payib, bank kartasidagi pul mablag'larining talon-toroj qilinganligi yuzasidan murojaatlar soni ortib bormoqda. Shu bois har birimiz ijtimoiy tarmoqlardan foydalananda e'tiborliroq bo'lganimiz durust.



Xo'sh, firibgarlar odamlarni qanday qilib o'z qarmog'iga ilintiradi? – Aksariyat hollarda, fuqarolar ijtimoiy tarmoqlardagi so'rovnomada ishtirok eting, onlayn

mikroqarz oling qabilidagi reklamlardan foydalanayotganda, havolani bosish orqali firibgarlar tuzog'iga ilinadi, – deydi Samarqand viloyati IIB Kiberxavfsizlik bo'limi xodimi Ulug'bek Eshonqulov. – Havola orqali web-saytga kirgandan keyin esa shaxsiy ma'lumotlar, karta ma'lumotlarini kiritish hamda yuborish, undan keyin esa to'lov tizimlari yoki bank tomonidan tasdiqlash uchun SMS kod keladi, shu

tasdiqlash kodini kiritish so'raladi. Ko'pchilik ushbu tasdiqlash kodini yuborish orqali boshqaruvni boshqa shaxsga taqdim etib qo'yganini bilmaydi. Tabiiyki, tasdiqlash kodini qo'lga kiritgan odamda ikkinchi odamning kartasidagi pul mablag'larini istalgan vaqtda yechib olish imkoni tug'iladi.

Shuningdek, hozirgi vaqtda internet foydalanuvchilarining shaxsiy akkauntlari firibgarlar qo'lga tushib qolib, ularning nomidan boshqa shaxslarga feyk xabarlar tarqatish holatlari ham ko'plab kuzatilmoqda. Aynan SMS tasdiqlash kodi Telegram, Instagram, Facebook yoki Google kabi messenjerlarga tegishli bo'lsa, bunda bir inson ikkinchi bir odamni internet ijtimoiy tarmoqlardagi shaxsiy akkauntini qo'lga kiritib, uning barcha yozishmalari, shaxsiy ma'lumotlarini qo'lga kiritishi va uning nomidan boshqa shaxslarga xabar yuborish orqali o'zining g'araz niyatlarini amalga oshirishi mumkin bo'ladi. Buning oldini olish va firibgarlar tuzog'iga tushib qolmaslik uchun, eng avvalo, har qanday vaziyatda shaxsan o'zimizga kelgan SMS tasdiqlash kodini begona shaxslarga bermaslik kerak.

Sirasini aytganda, tilimizdagi «O'zingga ehtiyot bo'l, qo'shningni o'g'ri tutma» maqolining mag'zini chaqqanlar kiberjinoyatchilik qurboniga aylanmaydi.

Gulnoza TURG'UNBOYEVA,
«Postda» muxbiri.

Samarqand viloyati.



■ Наманган вилояти

ТУНУ КУН ХИЗМАТДА

Ички ишлар органлари соҳавий хизматлари орасида туну кун, узлуксиз хизмат кўрсатадиган навбатчилик қисмларининг фаолияти жиноятларни «иссиқ изида» фош этишда катта аҳамиятга эга.

Тўрақўрғон тумани ИИБ Ташкилий бўлимида ҳозирда 6 нафар ходим хизмат олиб боради. Улар ўз хизмат вазифаларига масъулия билан ёндашиб, ҳудудда жиноятчиликка қарши курашиш ишига муносиб ҳисса қўшиб келишмоқда.

Жорий йилнинг 6 март куни туманнинг «Калвак» маҳалласида яшовчи, 1961 йилда туғилган фуқаро Н.Қ. навбатчилик қисмига мурожаат қилди. Унинг айтишича, ўзига тегишли савдо дўконини кимдир калит танлаш йўли билан очган ва ичкарида бўлган темир сейф қулфини бузиб, 5 млн. 300 минг сўм пулни олиб кетган.

Мазкур мурожаат асосида зудлик билан олиб борилган қидирув-суриштирув ишлари жараёнида жиноятни Наманган шаҳридаги «Озод» маҳалласида яшовчи фуқаро И.В. содир этган



ни аниқланди. Ҳолат юзасидан туман ИИБ ҳузуридаги Тергов бўлими томонидан фуқарога нисбатан жиноят иши қўзғатилди.

– Навбатчилик қисми ходимлари томонидан жорий йил бошидан буён ҳозирги кунга қадар мингта мурожаат қайд этилиб, тегишли тартибда қонуний ҳал қилиш чоралари кўрилди, – дей-

ди туман ИИБ Ташкилий бўлими бошлиғи, майор Ғайратжон Абдуллаев. – Навбатчилик қисми фаолиятига замонавий ахборот технологияларининг кириб келиши хизмат самарадорлигини таъминламоқда.

Хабарномалар ва жиноий ҳолатларга оид материаллар компьютер дастурлари орқали амалга оширилади. Марказий кўчалар ва чорраҳаларга ўрнатилган видеокузатув камералари навбатчилик қисмига интеграциялашган бўлиб, монитор орқали назорат қилиб борилади.

Ҳудудда содир бўлган жиноятларни аниқлаш ва «иссиқ

изида» фош этиш фуқароларнинг ҳаёти ва соғлиғини таъминлашда ҳам муҳим ўрин тутди. Дейлик, кимдир маст ҳолда ҳуқуқбузарлик содир этса, ўз вақтида тез ёрдам бўлимларига етказилган хабар туфайли фуқаронинг ҳаёти сақлаб қолинади. Ходимларнинг саъй-ҳаракатлари туфайли бу каби кўплаб кўнгилсиз ҳодисаларнинг олди олинмоқда.

– Туну кун хизматдамыз, – дейди катта навбатчи, капитан Дониёр Махсимчаев. – Ишимиз жуда масъулиятли. Доим ҳушёр туришимиз шарт. Шу маънода, навбатчилик қисми фуқаролар билан ички ишлар органлари ўртасида кўприк вазифасини ўтамоқда, десак, муболаға бўлмайди.

Навбатчилик қисми фаолияти билан танишиш асносида аҳоли ўртасида ички ишлар органларига ишонч ортиб бораётганига амин бўлдик. Халқ ишончини оқлаш, ўз умрини осойишталикни таъминлашга сафарбар этиб келаётган фидойи ходимлар бор бўлсин.

Гулчеҳра БУВАМИРЗАЕВА,
«Postda» мухбири.



ЖАРЛИК САРИ ЙЎЛ

Маълумотларга қараганда, маст ҳолда транспорт воситасини бошқариш 95 фоиз ҳолатда автоҳалокатларга олиб келади. Уларнинг тенг ярми оғир тан жароҳати ёки ҳаётдан маҳрум бўлишга олиб келади. Шу сабабли юртимизда спиртли ичимлик ичган ҳолда транспорт воситасини бошқариш тақиқланиб, бундай ҳолатларга нисбатан қаттиқ жазо чораси белгиланган. Шунга қарамай, маст ҳолда машина рулига ўтираётган шахсларнинг учраб тураётгани эса афсусландир.



Гулистон шаҳрида ўтказилган тунги рейд давомида йўл ҳаракати хавфсизлиги ходимлари автотранспорт воситаларининг ҳужжатларини ўрганишди. Тунги соат йигирма иккиларда «ГАЗ-24» русумли автомобиль тўхтатилди. Машина кузови ўзгартирилиб, пикап ҳолатига келтирилган. Унга йигирматача шифер ортилган. Инспектор ҳайдовчининг ҳужжатларини текшира бошлади. Маълум бўлишича, Мирзаобод

тумани «Тошкент» маҳалласида яшовчи А.К.нинг улов билан боғлиқ барча ҳужжатлари жойида экан. Бироқ суҳбат жараёнида ҳайдовчининг гап-сўзларида пала-партишлик сезилди. Шу боис унга алкотестердан ўтиш таклиф қилинди. Натижада ҳайдовчи маст экани ойдинлашди. Автотранспорт воситаси жарима майдонига қўйилиб, ҳолат бўйича маъмурий баённома расмийлаштирилди.

Рейд давомида мастлик билан боғлиқ яна бир ҳолат аниқланди. Тун ярмига етганда, «Жигули» автомобили тўхтатилди. Уни бошқариб бораётган ҳайдовчи фирт маст ҳолда экани маълум бўлди. Гулистон туманида яшовчи Б.Д. эса буни тан олишни истамасди. Аммо у ҳатто транспорт воситасидан тушишни ҳам эплай олмасди. Анчагина уринишдан сўнг ундан алкотест олинди. Таҳлил ўта кучли

мастлик ҳолатини тасдиқлади. Автомашина жарима майдонига қўйилди.

Ҳар иккала ҳайдовчи ҳам автотранспорт воситасини бошқариш ҳуқуқидан маҳрум қилиниб, жаримага тортилди. Лекин улар бундан тегишли хулоса чиқаришдимикан? Ҳамма гап шунда.

Абдурахмон МУСТАҒОҚУЛОВ,
«Postda» мухбири.

Сирдарё вилояти.



Ma'naviyat va ma'rifat darsi

MA'NAVIYATDA DIYONAT VA E'TIQODNING O'RNINI

Ma'naviyat har qanday davr va zamonda ham, har qanday jamiyatda ham insoniyatning birlamchi va asosiy ehtiyoji bo'lib kelgan, unga hamisha zarurat seziladi.

Ma'naviyat – ochlik, yo'qchilikka go'zal sabrni, jahl-u nafsni tiyish va yengishni, xullas, barcha illatlarga qarshi tura olishni ko'rsatadi, o'rgatadi. Uni chin ma'noda, borligicha his qila olmaydiganlar, anglab yetmaganlarga inkor etadi, past baho beradi, ahamiyatsiz ko'radi. Jamiyatning, millatning yoki ayrim bir kishining ichki hayoti, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati, idrokini mujassamlashtiruvchi, inson va jamiyat madaniyatining negizi, inson va jamiyat hayoti yo'nalishining bosh omilidir. U muayyan iqtisodiy-ijtimoiy hayot tizimining shakllanishi, o'zgarishi yoki inqirozga yuz tutishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Millatning ma'naviy qiyofasi, jamiyatning moddiy-ijtimoiy, tarixiy sharoitlarga qarab ma'naviyatning boyib borishi qonuniy hodisa. Ma'naviyatning muhim unsuri bo'lgan milliy ong nisbiy mustaqildir. U jamiyatning moddiy va ma'naviy qiyofasini tubdan o'zgartirishga faol ta'sir qilishi mumkin.

Milliy ong va uning shakllanishi, eng avvalo, milliy uyg'onish zamirida sodir bo'ladi. Milliy ong va anglash har bir odamdanda o'zining qaysi millatga tegishliligi, milliy tarixi, madaniyati, merosi, urf-odatlarini, tilini to'g'ri, har taraflama chuqur bilishni talab etadi. Milliy o'zlikni anglash, ilmiy-siyosiy tus olsa va ijtimoiy harakat uchun qo'llanma darajasiga ko'tarilsa, u, shubhasiz, milliy mafkuraga aylanadi.

Ma'naviyatda diyonatning o'rni muhim.

Diyonat keng ma'noda o'z ichiga din, e'tiqod, diniy ta'limot, ishonish, vijdon, vijdonlilik, insof tushunchalarini qamrab oladi.

O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning «Dunyoda diyonat hali mavjuddir, hali mard yigitlar yashab yuribdi» degan satrlarida ham bu so'zning ma'nosi aks etgan.

Ma'naviyatni ushlab turadigan ustunlardan yana biri e'tiqod masalasidir. Xo'sh, e'tiqod nima?

«E'tiqod» arabcha so'z bo'lib, «aqada» fe'li asosida yuzaga kelgan. Mohiyatan bir narsani ikkinchisiga mahkam bog'lash ma'nosini anglatadi.

Kishi odatda biror narsaga e'tiqod qilishi uchun uning mohiyatini a'lo darajada bilishi kerak. Aks holda, e'tiqod borasida chalkashlik va xatoliklar kelib chiqishi tabiiy. Buning uchun ma'rifat zarur. U ongimizda mustahkam qaror topsagina, e'tiqodimiz musaffo bo'ladi. Demak, e'tiqod ilmga asoslangan bo'lishi lozim. Aslini olganda, barcha narsaning tub mag'zini anglashda ilm-u ma'rifatga muhtojligimiz kundan-kun sezilib turadi.

E'tiqod sofligi har bir inson uchun o'ta muhimdir. Chunki e'tiqodsiz amallarning zarracha foydasi yo'q.

E'tiqodning zaruriy masalalarini bilmagan kishi har qancha riyozat cheksa ham, qilgan ibodatlariga unga hech qanday naf bermaydi.

O'z turmushini ongli tashkil etish, turli rejalar tuzish, orzu-havaslarga, ko'ngli va tafakkuriga

mos yashashga, komillikka intilish insonning xos belgisi. Uning na-faqat moddiy-iqtisodiy, shuningdek, ma'naviy ehtiyojlari ham bor. Inson ma'naviyatining o'zagini esa e'tiqod tashkil qiladi. Ma'naviyat e'tiqod tevaragida shakllanadi. Ma'naviyatning mazmunini, eng muhim xususiyatlarini e'tiqod belgilaydi.

Insonning barcha tuyg'ulari, kechinmalari yoki barcha amal qiladigan g'oyalari, me'yori, qarashlari ma'naviyat bo'lib qolavermaydi. Tuyg'ular orasida nafs va hirs, jahl va qiziqqonlik tufayli yuzaga kelganlari, tushunchalar, g'oyalar, baholar fikr-mulohazalar, xulosalar orasida ilmsizlik, adashish, xato, noto'g'ri axborot sababli vujudga kelganlari bo'lishi mumkin. Nafsilamrini aytganda, hech kim adashishlardan, xatolardan kafolatlanmagan. Botil tuyg'ular va fikrlar esa ma'naviyat hisoblanmaydi. Jaholat, zolimlik, odob-axloq qoidalariga rioya qilmaslik, nafs va hirs qutqusiga berilish, zo'ravonlik orqali hammani bir xil o'ylashga, bir xil yashashga majburlash ma'naviyatsizlikdir.

Keyingi yillarda mamlakatimizda «Inson qadri uchun» degan ezgu g'oya asosida har bir fuqaro erkin va farovon yashaydigan Yangi O'zbekistonni barpo etish maqsadida xalqimizning azaliy orzu-intilishlariga hamohang va uyg'un holda keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Oldimizga qo'ygan bunday ulug'vor vazifani amalga oshirishda biz, eng avvalo, qadimiy tariximiz va boy madaniyatimizga, yuksak insonparvarlik tamoyillarini o'zida mujassam etgan milliy va diniy qadriyatlarimizga tayanishimiz tabiiydir. Ayniqsa, el-yurtimiz doimo orziqib, katta xursandchilik bilan kutib oladigan, jamiyatimizda tinchlik, do'stlik, mehr-oqibat va

bag'rikenglik muhitini mustahkamlashga xizmat qiladigan muqaddas Ramazon oyining bu borada alohida o'rni va ahamiyati borligini ta'kidlash lozim.

Prezidentimizning 2023-yil 21-martdagi «Muborak Ramazon oyini munosib tarzda o'tkazish to'g'risida»gi qarorida odamiylik, inson sha'nini ulug'lash, yaxshilik va mehr-saxovat kabi fazilatlarini namoyon etadigan, bugungi tinch va osoyishta hayotimizni qadrlash, oila va mahallalarda, butun yurtimizda mehr-oqibat, o'zaro hurmat muhitini mustahkamlash, kam ta'minlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj kishilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tadbirlarni tashkil etishga alohida e'tibor qaratish zarurligi belgilandi.


Muqaddas oyda ehtiyojmand oilalarga, keksalarga, ko'makka muhtojlarga yanada ko'proq e'tibor qaratiladi. Nuroniylar, bemorlar, ko'ngli yarimlar holidan xabar olish, ularga dalda bo'lishga oid ishlar hajmi tobora kengayadi. Ibratli, savobli yumushlar yanada ortadi. Xayrli ishlarga rag'bat ortib, yaxshilik yo'lida hamkorlik kuchayadi. Odamlar bir-biriga yanada mehrli, iltifotli bo'ladi.

Zero, xalqimiz uchun ezgulik, mehr-muruvvat, saxovat, oljanoblik va shukronalik timsoli bo'lgan Ramazon oyida amalga oshirilayotgan ulug'vor ishlar jamiyatimizda tinchlik, do'stlik, mehr-oqibat va bag'rikenglik muhitini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Sarvar SOBIROV tayyorladi.



✓ **В образовательных учреждениях МВД**



ПО ПУТИ УКРЕПЛЕНИЯ ПРАВОВЫХ МЕХАНИЗМОВ

В нашей стране реализуются комплексные меры по обеспечению прав и законных интересов осужденных, повышению эффективности воспитательной работы по их исправлению в целях предупреждения рецидивности преступлений.

В Академии МВД Узбекистана состоялась республиканская научно-практическая конференция на тему «Совершенствование обеспечения прав и свобод лиц, находящихся под надзором службы пробации».

В мероприятии приняли участие ответственные сотрудники Верховного суда, Генеральной прокуратуры, министерств юстиции, внутренних дел, представители профессорско-преподавательского состава высших образовательных учреждений, а также курсанты,

обучающиеся по специальности «Уголовно-исполнительная деятельность».

В своем выступлении заместитель начальника Академии по науке и инновациям полковник Руфтулло Нигматов акцентировал внимание на вопросах дальнейшего укрепления правовых механизмов деятельности службы пробации с учетом международных стандартов и передового зарубежного опыта.

В ходе конференции заслушаны и обсуждены доклады

«Организация деятельности службы пробации и перспективные задачи», «Прокурорский надзор за деятельностью сотрудников службы пробации», «Практика рассмотрения документов, представляемых в суд службой пробации», «Функционирование службы пробации в зарубежных странах» и др. Сформулированы предложения и рекомендации по укреплению механизма обеспечения прав поднадзорных лиц, содействию им в социальной адаптации, усилению профилактических мер по недопущению повторного совершения преступлений, взаимодействия государственных органов и общественности в данном направлении.

Радик ТУМПАРОВ,
корреспондент «На посту».

✓ **Безопасность на дорогах**

«ОТ ЧЕТКОСТИ ДЕЙСТВИЙ ЗАВИСИТ МНОГОЕ»



Служба инспекторов ДПС начинается с раннего утра. Доводится информация о ДТП, произошедших за последние сутки, об обстановке на дорогах, озвучиваются маршруты экипажей. По окончании развода сотрудники проходят контроль у врача, а затем выезжают на места дислокации.

– Безупречно знать нормативно-правовые акты, регулирующие нашу деятельность, быть уверенным в себе, корректным в общении с гражданами – основные принципы, которых придерживаемся, – говорит инспектор первого мобильного отряда дорожно-па-

трульной службы УБДД СОБ УВД Андижанской области рядовой Фарходжон Хамрокулов.

Особое внимание инспекторы уделяют пропаганде среди населения необходимости неукоснительного соблюдения ПДД. Отдельное направление – работа со студентами, школь-

никами. Проводят они занятия и в дошкольных образовательных организациях, причем, с учетом возрастных особенностей детей, в игровой форме – так проще запоминается.

– Наша служба весьма ответственна, – подчеркивает рядовой Ф. Хамрокулов. – От четкости действий, своевременности принимаемых решений зависит многое – порядок на дорогах, безопасность и водителей, и пешеходов.

Фарходжон Хамрокулов в рядах органов внутренних дел с 2014 года. Службу начинал постовым сотрудником управления охраны. В 2019 году был переведен в подразделение обеспечения безопасности дорожного движения. Его наставником был инспектор ДПС рядовой Жахонгир Муминов, с которым нес службу плечом к плечу, у которого перенял опыт.

Борис КЛЕЙМАН,
корреспондент «На посту».

На снимке: инспектор ДПС рядовой Ф. Хамрокулов.

Фото автора.

Андижанская область.

✓ **Внимание: подросток!**

ОШИБКИ, КОТОРЫЕ МОЖНО ИСПРАВИТЬ

В социальных сетях большой резонанс вызвало видео, где школьница пыталась сброситься с крыши многоэтажки после ссоры с отчимом. 14-летняя Муниса (имя изменено) забралась на крышу 16-этажного дома, расположенного на улице Тарона в Фергане...



Выехавшие на место сотрудники правоохранительных органов смогли убедить школьницу не совершать опрометчивого поступка и ситуация разрешилась благополучно – Мунису увели с крыши.

По признанию девочки, это был не первый случай, когда она хотела свести счеты с жизнью. После того, как мать вышла замуж второй раз, покой в семье был нарушен. Отчим без конца придирался к Мунисе, упрекал по каждому поводу. Последняя ссора спровоцировала девочку на крайний шаг. Благодаря оперативности сотрудников правоохранительных органов и МЧС, ее спасли и предотвратили трагедию.

– Непонимание в семье действительно является одной из главных причин отчуждения, – говорит подполковник Наргиза Эгамназарова, старший инспектор-психолог по вопросам несовершеннолетних УКД ОВД Мирзо-Улугбекского района столицы. – Дети остро воспринимают несправедливость в отношении себя. Если родители не выражают добрым словом свои чувства к ребенку, используют лишь суровые методы воспитания, жестко ругают подростка за любые мелочи, то он замыкается. Подросток хочет доказать свою правду родителям, пытается показать, что он личность, с его мнением нужно считаться. Для гармоничного развития ребенка важна доверительная семейная атмосфера и общение с любящими взрослыми. Для родителей большая радость делиться мудростью и опытом со своими детьми, показывать на своих примерах, как относиться к старшим, уважать родных и близких.

Сейчас Муниса осознала, какую роковую ошибку чуть не совершила. После беседы со школьным психологом она поняла: проблемы можно и нужно решать с близкими людьми, а не в одиночку. Если раньше она скрывала от мамы проблемы, то сейчас они обсуждают их сообща, находят пути разрешения. Все мы делаем ошибки, главное – не повторять их.

Бибигуль МУРТАЗАЕВА.





Фахрий аёллар

УСТОЗЛИК БАХТИ

Ички ишлар органлари фахрийси, истеъфодаги подполковник **Ҳамрохон Мансурова** бу йил 71 баҳорни қарши олмақда. У 25 йил давомида ички ишлар органларида самарали хизмат қилиб, эл-юрт осойишталигига муносиб ҳисса қўшди, кўплаб шогирдларни тарбиялади.



Ҳамрохон Мансурова 1979 йилдан вилоят Ички ишлар бошқармасида тезкор хизматларда, кадрлар бўлимида хизмат қилди. 1992 йилда фаолиятини Фарғона шаҳрида жойлашган Сержантлар таркибини қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш марказида давом эттириб, 2004 йилда пенсияга чиқди.

Қаҳрамонимиз марказда кечган йилларини яхши хотиралар билан эслайди.

– Айни шу ерда ёш ходимларни ўқитиш, билим бериш, қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш мен учун жуда қизиқарли ва севимли юмушга айланди, – дейди у. – Марказда ўқиган, малака оширган ходимлар кейинчалик «устоз» деб мурожаат қилганида, қалбинг

ғурур ва ифтихорга тўлади. Ҳозир ҳам кўча-кўйда шогирдларимни учратиш қолман. Саломлашиб, эҳтиром кўрсатишади.

Лавҳамиз қаҳрамони масъулиятли соҳада ишлаш билан бирга, турмуш ўртоғи билан аҳилликда 2 нафар фарзандни етук инсонлар қилиб вояга етказди. Ўғли онасига ҳавас қилиб, ҳуқуқ-шунослик касбини танлаган. Айни кунда Ҳамрохон Мансурова 6 нафар неvara, 4 нафар эвара қуршовида кексалик гаштини сурмоқда.

Яқинда соҳа фахрийси Умра зиёратини адо этиб қайтди. Баҳор эпкинлари эсаётган шу кунларда унинг хонадони меҳмонлар билан тўлган. Ўзи ўқитган, иш ўргатган кўплаб шогирдлари ҳам устозининг зиёратдан

қайтганини эшитиб йўқлаб келишмоқда.

Жумладан, шогирдларидан – подполковниклар Дилоромхон Абдуллаева, Наргиза Миржалолова, Зумрадхон Зокирова, Икромжон Мадраҳимов, Қаҳрамонжон Ҳалиловлар бугунги кунда эл-юрт осойишталигини таъминлашга муносиб ҳисса қўшиб келишмоқда.

– Ҳар қандай инсон устозлар ёрдамисиз бирор ютуққа эришолмайди, – дейди подполковник Дилоромхон Абдуллаева. – Мен ҳам касб сирларини, ҳаёт сабоқларини ўргатган Ҳамрохон Мансурова каби устозларим билан ҳақли равишда фахрланаман.

Абдувосит СИДИҚОВ,
«Postda» мухбири.

Фарғона вилояти.

САЙЁХ

МИННАТДОР БЎЛДИ

Хива шаҳрига ташриф буюрган АҚШ фуқароси Часити Полк «Ичан қалъа» давлат музей-қўриқхонасидаги тарихий обидаларни томоша қилаётиб, «Samsung» русумли уяли алоқа телефонини йўқотиб қўйди. Кутилмаган бундай ҳолатдан таъби хиралашган сайёх дарҳол вилоят ИИБ Хавфсиз туризмни таъминлаш бошқармаси ходимларига мурожаат қилди.

– Хивага келиб, унинг ниҳоятда гўзал ва бетакрор шаҳар эканига гувоҳ бўлдим, – дейди америкалик сайёх. – Бу ердаги тарихий обидалар, осмонўпар миноралар, музейлардаги қадимий экспонатлар мени ҳайратга солди. Қолаверса, хунармандлар ясаган миллий маҳсулотларни кўриб қойил қолдим. Ушбу унутилмас лаҳзаларни тасвирга тушира бошладим.



Ана шундай қувончли онларда бехосдан телефонимни йўқотиб қўйдим. Орадан бирор соат ўтгач, бошқарма ходимлари телефоним топилганини хабар қилишди ва уни мен турган меҳмонхонага олиб келишди. Ходимларнинг тезкорлиги ҳамда амалий ёрдамидан жуда хурсанд бўлдим ва уларга миннатдорлик билдирдим.

Вилоят ИИБ Хавфсиз туризмни таъминлаш бошқармаси ЖТСГ инспектори, катта лейтенант Бобур Ҳабибуллаев томонидан олиб борилган тезкор суриштирувлар давомида сайёхга тегишли телефон аппарати музей-қўриқхона ҳудудида унутиб қолдирилгани маълум бўлди.

Худойберган ЖАББОРОВ,
«Postda» мухбири.

Хоразм вилояти.



Хизмат жойи – Қоровул қўшинлари

ҲАМИША ОЛФА ИНТИЛАДИ

Самарқанд вилояти Каттакўрғон туманида туғилган **Бобомурод Латипов** болалигидан Ватан ҳимоячиси бўлишни орзу қиларди. Унинг отаси – фермер **Тўхтамурод ака** ўғлининг танловини қўллаб-қувватлади. **Бобомурод** мақсади сари қатъий интилиб, мактабда аъло баҳоларга ўқиди, спорт билан мунтазам шуғулланди. Мактабни тамомлагач, **Жамоат хавфсизлиги университети**га ўқишга кирди.

Қаҳрамонимиз олий ҳарбий таълим муассасасини муваффақиятли битириб, лейтенант унвонини олди. Ёш офицер тақсимотга кўра ИИБ Қоровул қўшинларининг Андижон шаҳридаги ҳарбий қисмига йўл олди. У тез орада ўзини билимли ва масъулиятли кадр сифатида намоён этди. Қўшинлар жанговар тайёргарлигининг ўзига хос жиҳатларини, шахсий таркиб билан ишлаш тамойилларини пухта эгаллаб, чинакам офицер, ҳақиқий Ватан ҳимоячисига айланди.

– Гуруҳ командири, лейтенант **Б. Латипов** бир қатор ижобий фазилатларга эга, – дейди қисм командирининг тарбиявий ва мафкуравий ишлар бўйича ўринбосари, подполковник **Азизбек Юсупов**. – У ўзига ва қўл остидагиларига нисба-

тан талабчан, хизмат интизомига қатъий риоя қилади, ҳар доим олфа интилади. Эркин кураш ва қўл жанги каби спорт турлари билан мунтазам шуғулланиб, Андижон вилоятида куч тузилмалари ходимлари ўртасида ўтказилган мусобақаларда бир неча бор ғолиб бўлди. Хизматдан бўш вақтларида эса ҳарбий қисм кутубхонасидаги жаҳон тарихидан ҳикоя қилувчи китобларни қизиқиш билан ўқийди.

– Бу ерда мураббийлик мактаби яхши йўлга қўйилган, – дейди лейтенант **Б. Латипов**. – 2-даражали сержант **Бекзод Умаров**, 3-даражали сержант **Бехзод Маматкаримов**, кичик сержант **Файзулло Ҳожихонов** каби тажрибали ҳарбий хизматчилар ўзларининг бой тажрибасини ёш аскарлар билан беминнат



ўртоқлашиб, қийин вазиятларда қандай ҳаракат қилишни ўргатапти, жанговар маҳоратини оширишга ёрдам бермоқда.

Гуруҳ ҳарбий хизматларда ўзаро аҳил, оғир дамларда бир-бирига ёрдамлашади, бўш вақтларида оила аъзолари билан вилоятнинг тарихий жойларини зиёрат қилиб, музейларга боришади. Жамоадаги ҳар бир

аскар ўз жонажон Ватани – Ўзбекистон Республикасини кўксини қалқон қилиб ҳимоя қилишга шай.

Ўз мухбиримиз.

Суратда: гуруҳ командири, лейтенант Бобомурод Латипов (ўртада) оддий аскарлар Бекмурод Абдурашидов ва Сайфиддин Норкулов билан.



Ma'naviyat marshrutlari

QO'YQIRILGAN QAL'ASIDA QO'YLAR QIRILGANMI?

Amudaryoning o'ng sohili bo'yida joylashgan va ming yillar davomida hayot gullab-yashnagan qadimiy qal'alarda yashagan ajdodlarimiz o'z davrida muayyan yutuqlarni qo'lga kiritgani o'z isbotini topmoqda.

To'rtko'l tumanidagi Qo'yqirilgan qal'asi Markaziy Osiyodagi eng qadimgi shaharlardan biri hisoblanadi. 1930-yillar oxirida tadqiqot ishlarini olib borayotgan ekspeditsiya a'zolari tomonidan tasodifan topilgan mazkur qal'aning noan'anaviy, ya'ni yumaloq tarzda qurilgani ularni hayratda qoldirgan. O'rganishlar davomida bu yerdan topilgan haykalchalar obidaning zardushtiylik davriga tegishli ekanligidan darak beradi. Hozirda ushbu haykalchalar Sankt-Peterburg shahridagi Ermitaj va Sharqshunoslik muzeylaridan joy olgan.

Mahalliy aholining obidani Qo'yqirilgan deb nomlashi uning shu nom bilan yuritilishiga sabab bo'lgan. Lekin nega aynan bu nom bilan atalishiga aniq dalillar keltirilmagan. Keyingi izlanishlar davomida mazkur qal'a eramizdan avvalgi IV asrga tegishli

deb topilib, uning ichki aylanasi 42 metr, tashqi aylanasi 87,5 metr va balandligi 8 metrni tashkil etgani aniqlangan.

Qal'a bir-biridan ma'lum masofada mudofaa maqsadlarida qurilgan 9 ta minorali aylana devorlar bilan o'rab olingan. Markaziy minoralarning



balandligi 8 metrcha bo'lib, quyi qavatdagi binolar devorning tomga tutash burchak qismida joylashgan derazalar orqali yoritilgan. Deraza tokchalarining chuqurligi 7 metrga yetgan, sababi umumiy aylanasi 42 metrli minorani o'rab olgan devor juda qalin bo'lgan.

Tadqiqot ishlarini olib borgan tarixchi-arxeolog S.P.Tolstov qal'adagi astronomik kuzatishlarga mo'ljallangan besh derazali xonani sinchiklab o'rganib, ayrim uskuna qoldiqlariga tayanib, bu joyda rasadxona bo'lgan, degan fikrni ilgari surgan. Demak, Qo'yqirilgan qal'asida dunyoning boshqa joylariga nisbatan an-


cha ilgari rasadxona paydo bo'lib, koinot bo'yicha tadqiqotlar o'tkazilgan, degan taxmin yuzaga keladi. Ma'lumki, rasadxona faoliyati matematika, geometriya, trigonometriya, fizika, astronomiya kabi fanlarga tayanadi. Bundan ko'rinadiki, Qo'yqirilganda miloddan avvalgi IV asrdayoq yuqorida nomlari qayd etilgan fanlar ancha rivojlangan.

Tarixchi olimlarning ta'kidlashicha, qal'aning yuqori qatlamidan juda ko'p temir qurol va buyumlar topilgani Qo'yqirilgan qal'asi yuqori mansabdorlar, lashkarboshilar va ulamolar yashaydigan markaz bo'lganligini ko'rsatadi, – deydi O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti katta ilmiy xodimi Abutalib Bekbauliyev.

Afsuski, qal'a atrofining deyarli barcha tomonida ekin maydonlari bo'lib, sug'orish ishlari olib borilishi uning devorlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Devorlar yildan-yilga yo'qolib boryapti. Shuning uchun bu masalaga hukumat darajasida e'tibor qarab, atrofdagi ekin maydonlarini qisqartirish lozim. Qal'a devorlarida rekonstruksiya ishlarini olib borish orqali tarixiy obida saqlab qolinsa, maqsadga muvofiq bo'lardi.

Azamat PIRNIYAZOV,
«Ha posty» muxbiri.

Qoraqalpog'iston Respublikasi.



■ Хорезмская область

НА СВОБОДЕ, НО ПОД НАДЗОРОМ

Какие меры принимаются к лицам, находящимся под надзором службы пробации?

Группа пробации СОБ ОВД Янгиарыкского района осуществляет надзор за соблюдением лицами, состоящими на учете, ограничений, установленных приговором суда.

На учете группы 108 осужденных. В том числе: 26 лиц, осужденные к исправительным работам, 16 – к наказанию в виде ограничения свободы, 14 лиц, лишённые определённого права, 52 лица условно-досрочно освобождённые от уголовного наказания.

Особое внимание уделяется вопросам привлечения к ответственности поднадзорных, злостно уклоняющихся от отбывания наказания. За истекший период нынешнего года решением суда наказание одного осуждённого, не выполнявшего установленные к нему требования, заменено на наказание, связанное с лишением свободы.

...Поднадзорный Д. П., житель Янгиарыкского района, не

соблюдал установленные ограничения, покинул постоянное место жительства. На основании данной информации и собранных документов Д. П. был объявлен в розыск. В ходе мероприятия, проведенного совместно с сотрудниками соответствующих служб ОВД, он был задержан, к нему применены установленные законом меры.

– В целях эффективного обеспечения надзора за поведением осуждённых, недопущения повторного совершения ими противоправных действий поднадзорный контингент подразделен на категории, – говорит старший инспектор группы пробации СОБ ОВД района майор Хамиджон



Абдуллаев. – 99 поднадзорных признаны вставшими на путь исправления, 5 лиц – склонными к совершению преступлений, 4 лица отнесены к категории лиц с высоким риском совершения противоправных деяний. С каждым поднадзорным осуществляется целенаправ-

ленная индивидуальная профилактическая работа. Кроме того, изучаются условия жизни поднадзорных, в необходимых случаях им оказывается социальная поддержка

Худойберган ЖАББОРОВ,
корреспондент «Postda».



✓ Как живешь, РОВД?

Район является одним из отдаленных уголков Самаркандской области. Он граничит на юго-востоке с четырьмя районами Кашкадарьинской области, а на юге – с Навоийской областью. Мы побывали в районном ОВД и встретились с его начальником – подполковником Зокиром Суванкуловым.

Нурабадский район расположен на приграничной территории. Большую часть его занимают фермерские хозяйства и пастбища. Население – 159 тысяч человек. Основная часть жителей занимается разведением скота.

В районе 39 махаллей, 11 из которых прилегают к горной местности – махалли Тепакул, Сарой, Сазаган, Чортут, Оксой, Мехнаткаш, Сарикул, Дустлик, Омондара,



Нурафшон, Лолазор. В некоторых горных местах нет возможности проехать на транспорте, инспекторы профилактики иногда передвигаются на лошадях.

Что касается здания РОВД, то оно расположено в центре Нурабада – в махалле имени Амира Темура. Это типовое двухэтажное здание 1975 года постройки. Служ-

бу здесь несут более ста сотрудников, которые прилагают все усилия для решения задач по борьбе с преступностью.

– Удалось уменьшить количество краж, ДТП со смертельным исходом, нанесений телесных повреждений, – говорит наш собеседник. – В районе повсеместно устанавливаются камеры видеонаблюдения, организовано ночное патрулирование. В общей структуре совершенных преступлений выделяется мошенничество. С начала года зарегистрировано 12 таких фактов, при этом рост наблюдается в основном из-за преступлений, совершенных в киберпространстве. Необходимо также усилить работу по противодействию экономическим преступлениям. Над профилактикой данных видов противоправных деяний работают сотрудники отдела в тесном взаимодействии с представителями общественности.

Подполковник Зокир Суванкулов является руководителем третьего сектора, в который входит 10 махаллей с общей численностью населения 38 тысяч человек.

– В минувшем году более чем 650 семьям, включенным в «железную тетрадь» оказана материальная помощь, приняты меры к трудоустройству лиц, не имеющих постоянного источника дохода. Не остались без внимания и нуждающиеся женщины. Более 600 жительниц получили помощь, свыше 40 – трудоустроены, 25 – оформили льготные кредиты и т.д.

В секторе осуществляется созидательная работа. Благоураживается территория, ремонтируются внутренние дороги. Начали функционировать 6 дошкольных образовательных организаций.

Замира БАЛТАЕВА.
Фото автора.

Самаркандская область.



■ Сурхандарьинская область

Прогулка на «Тіко» может стоить дорого

28 марта 51-летний житель махалли Маданият Музрабадского района Х. У. обратился в ОВД. В заявлении он сообщил, что припарковал свой автомобиль «Тіко» возле дома знакомого, проживающего в махалле Илгор Ангорского района, неизвестный воспользовался этим и угнал машину.

В ходе следственно-оперативных мероприятий автомобиль был замечен на посту ДПС «Мангузар» города Термеза. Сотрудники ДПС дали водителю знак остановиться, но он, проигнорировав их, попытался все же проехать пост, выехав на обочину. Не справившись с управлением, злоумышленник совершил ДТП. В этот мо-



мент был задержан правоохранителями. При проверке было установлено, что угон авто совершил ранее судимый 36-летний житель махалли Обихаёт



Джаркурганского района Ж. Х., который на момент совершения деяния находился в состоянии алкогольного опьянения.

По данному факту следственной группой при ОВД Ангорского района в отношении Ж. Х. возбуждено уголовное дело.



Mutaxassis maslahati

SOG'LINGIZ O'Z QO'LINGIZDA

Kishi sog'lom bo'lishi uchun boy bo'lishi shart emas. Odam kambag'al bo'la turib ham sog'lom bo'lishi mumkin. Badavlat kishi ham sog'lom turmush tarziga, to'g'ri ovqatlanish qoidalariga rioya etmasa, turli xastaliklarga chalinaldi.

Men 52 yillik tajribaga ega shifokor sifatida insonlarning tabaqalariga qarab ularning sog'liqlariga baho berish fikridan yiroqdaman. Ayrim insonlar dardga yo'liqildirmi, darhol aybni davlat tizimidan, ekologiyadan, shifokorlarning bilim-saviyasidan izlashga harakat qilishadi. Shuni esdan chiqarish kerak emaski, har bir insonning sog'lig'i avallambor uning o'ziga bog'liq.

Ko'p yillik tajribam asosida shuni aytamanki, ayrim hamyurtlarimiz sog'lom turmush tartib-qoidalariga, me'yorlariga va o'z mizojiga rioya etishmaydi. Ular mamlakatimizda olib borilayotgan sog'lomlashtirish dasturlariga e'tibor berishmaydi. Natijada umrbod nogiron bo'lib qolishadi. Bu juda ham achinarli holat, albatta.

To'g'ri, inson tanasi har xil (mexanik, termik, elektr, nur, psixik, infeksiyon va boshqa) tashqi ta'sirlarga uchrab turadi. Oqibatda a'zolar va to'qimalarning anatomik-fiziologik funksiyalarida o'zgarishlar sodir bo'ladi. Ushbu salbiy o'zgarishlarni o'z vaqtida to'g'ri, zamonaviy tashxis va usullar bilan davolash yo'lga qo'yilmas ekan, xastalik chuqurlashib boraveradi hamda og'ir asoratlar kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Ana shunday kasalliklardan biri bo'g'imlarda uchrab turadigan o'zgarishlar va ularning asoratidir. Hozirda

bu muammo dunyoda global holda insonlarning sog'lig'iga, normal hayot kechirishiga, yurish-turishiga, qobiliyatiga o'z ta'sirini o'tkazayotganligi mubolag'a emas.

So'nggi 4-5 yil mobaynida bo'g'imlardagi o'zgarishlarning asosiy sababi COVID-19 infeksiyasiga bog'lab qo'yilmoqda. Haqiqatan, ko'p hollarda mazkur xastalikni davolash jarayonida kuchli gormonal dori-darmonlarni qo'llash bo'g'imlarda, suyaklarda va hattoki pay-mushak, qon tomirlarda degenerativ o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Hozirda boshidan COVID-19ni o'tkazgan bemorlarni to'liq rehabilitatsiyadan o'tkazish dasturi ishlab chiqilmaganligi sababli bemorlarni nazorat qilish susaygan. Bu holat ayrim chuqurlashishlarga, bo'g'im-



larda to'liq harakatning buzilishiga olib kelmoqda. Natijada operatsiya usuli bilan (endoprotezlash) davolash



Abduvohid TOSHPO'LATOV, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan shifokor, «Mehnat shuhrati» ordeni sohibi, tibbiyot fanlari doktori.

keng miqyosda olib borilmoqda.

Osteoartroz xastaligi bu umumiy tashxis bo'lib, bo'g'imlarda kechadigan murakkab jarayon hisoblanadi. Dastlab kasallik quyidagicha kechadi: harakat qilganda bo'g'imlar qisirlaydi, bukkanda esa noxush his paydo bo'ladi. Agar xastalik davolanmasa, yillar o'tgach jarayon chuqurlashib, og'riq belgisi doimiy holatga o'tadi.

Umuman olganda, harakat yelka, tos-son va tizza bo'g'imlarida uy sharoitida davolanish natijasida kamayib yoki ko'payib turishi mumkin.

Kasallik sekin-asta rivojlanadi. Bora-bora har qanday harakat chidab bo'lmas og'riqqa sabab bo'ladi. Bo'g'imlarda deformatsiyalar paydo bo'lishi mumkin. Odatda osteoartroz bir bo'g'imning shikastlanishi bilan boshlanadi. Ma'lum vaqtdan so'ng ushbu jarayonga parallel bo'g'imlar qo'shilishi mumkin. Ko'pincha kompensator (ikkinchi) bo'g'im qiynaladi, chunki xasta bo'g'imning yuklamalarini o'ziga oladi. Ba'zida bo'g'imdagi og'riq meteorologik omillar (past harorat, namgarchilik, atmosfera bosimi) ta'sirida kuchayadi.

Osteoartrozdan qiynalayotgan bemorlarni davolashda shifokor oldida ikkita asosiy vazifa turadi. Birinchidan, bemorni og'riqdan xalos etish zarur. Ikkinchidan esa, bo'g'imning harakat funksiyasini yaxshilash kerak. Bu

ikki talab bo'g'imlar shikastlanishining og'irlik darajasi (I-II-III-IV-V darajali) va joylashishiga qarab o'zgaradi.

Osteoartrozning konservativ terapiyasi eng avvalo bemorning umumiy ahvoli, uning yurak-qon tomir tizimi holati, xastalikning qancha vaqt davom etganligi, tanadagi qo'shimcha xastaliklar va bo'g'imlarning ichki tuzilmalarining shikastlanishiga qarab belgilanadi. Xastalikning zamonaviy terapiyasi rehabilitatsiyaning jismoniy usullarini va dori-darmon bilan davolashni o'z ichiga oladi. Yuklama bilan bo'g'im imkoniyatlari o'rtasidagi muvozanatni tiklashning jismoniy usullari (tana vaznini kamaytirish, ortopedik deformatsiyalarni operatsiya usuli bilan davolash, qo'shimcha tayanchlardan foydalanish, mushaklarni mustahkamlash) zarur hisoblanadi. Ko'pchilik hollarda shu muolajalarning o'zi davolash uchun kifoya bo'ladi. Massaj (uqalash) va davolash gimnastikasi majmuasini doimiy o'tkazish orqali davolanish jarayonini mustahkamlash mumkin.

Osteoartrozni davolashda farmakoterapiyadan foydalanish (bo'g'imlar ichiga dori yuborish) faqat rehabilitatsion chora-tadbirlar samara bermaganda yoki doimiy og'riqli sindromdagina tavsiya etiladi. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, bo'g'im xastaliklarini asosiy davolash muolajalaridan so'ng, bemorlarni to'liq rehabilitatsiya qilish zarur deb hisoblayman. Bu vazifa to'liq bajarilmas ekan, aksariyat bemorlar nogiron bo'lib qolishlari mumkin.

Bugungi kunda, ichki ishlar organlari xodimlari va fuqarolar o'rtasida turli muammoli vaziyatlar, norozilik holatlari kelib chiqayotgani hech kimga sir emas. Bu, o'z navbatida, ichki ishlar organlari sha'niga putur yetkazibgina qolmay, fuqarolarning ichki ishlar organlari xodimlariga bo'lgan ishonchining yo'qolishiga sabab bo'lmoqda. Ushbu vaziyatlarga tushmaslik uchun quyidagi maslahatlarga amal qilishni tavsiya etamiz.



- Fuqaro bilan muloqotni salomlashishdan boshlang va o'zingizni tanishtiring, agarda sizdan talab qilinganda xizmat guvohnomangizni ko'rsating;
- Fuqaro tomonidan huquqbuzarlik holati sodir etilgan bo'lsa, unga sodir etgan huquqbuzarligining qonuniy asosini to'liq tushuntiring;

- Muloqot davomida ilmoqli so'zlariga ahamiyat bermang. O'zingizni xotirjam tuting va fuqaroni diqqat bilan eshiting;
- Suhbatdoshingizning diqqatini o'zingizga qaratish uchun suhbat jarayonida shoshilmasdan, iloji boricha pastroq ohangda va samimiylik bilan gapiring hamda xushmuomala bo'ling;



- E'tiborli tinglovchi bo'ling, suhbatdosh fikrini bo'lmang;
- «Siz xato qilyapsiz», «yanglishdingiz», «es-hushingiz joyidamas, shekilli» kabi aql o'rgatuvchi gaplardan foydalanmang.

Ruslan SHAMSHIMETOV, IIV MMI va KBTD bo'lim boshlig'i, mayor.





ПРОСТЫЕ СПОСОБЫ НЕ ПЕРЕЕДАТЬ



Любовь к вкусной еде – это нормально. Но бывает так, что съедобные радости становятся главным смыслом жизни, а приступы голода буквально сводят с ума. Рассказываем, как перестать зависеть от еды и держать свое тело в форме.

Выпейте воду. Зачастую мозг принимает обезвоживание за голод.

Всегда завтракайте. Пропуская утренний прием пищи, вы рискуете переест за обедом и ужином. Завтрак заряжает энергией, повышает работоспособность на 30%.

Используйте тарелки меньших размеров.

Если вы берете снеки (чипсы, орешки, конфетки и т.д.), используйте недоминантную руку (для правши – левая, для левши – правая). Исследования показали, что используя нерабочую руку, вы съедаете на 20% меньше.

Вы голодны? Пожуйте жвачку, лучше со вкусом фруктов. Так вы дотерпите до того момента, когда сможете получить нормальную еду.

Кладите на стол ложку или вилку после каждого укуса или порции еды, отправленной в рот. Таким образом вы станете есть медленнее.

Тарелки красного цвета уменьшают аппетит.

Не смотрите сериалы во время еды. Вы теряете контроль над тем, сколько съели, поэтому количество съеденного оказывается больше.

Уменьшите разнообразие выбора блюд за один прием еды. Чем меньше захочется попробовать, тем меньше съедите.

Сократите потребление быстрых углеводов. Вы можете «вписаться» в свою суточную калорийность, но если рацион по большей части состоял из сладкого, то провоцируется инсулиновая вспышка, и уже через 30 минут появляется потребность съесть еще.



Привыкая получать быстрые сахара, организм входит в сильнейшую зависимость, и никакая сила воли тут не поможет. Поэтому замените быстрые углеводы клетчаткой: она есть в миндале, яблоках, мюсли, моркови, грейпфруте.

Ешьте «правильные» сладости. В отличие от быстрых углеводов, белок подавляет аппетит и насыщает на больший период. А из белков и нежирного молока можно смастерить различные десерты, даже мороженое.

Согреться. Возможно, вы просто замерзли, и организм требует калорий для согрева. Оденьтесь теплее, выпейте чашку горячего чая.

Займитесь спортом. Проблемы решат йога, силовые упражнения, езда на велосипеде, посещение тренажерного зала, беговая дорожка. Во время занятий спортом нет времени думать о еде.

Жуйте медленнее. Из-за стола нужно вставать с легким чувством голода, потому что насыщение приходит только через 30 минут после еды. Жуйте тщательнее, ощутите вкус, насладитесь трапезой.

Ложитесь спать. Самый верный способ прогнать неприятное чувство голода – лечь спать.

ГОРОСКОП НА НЕДЕЛЮ (с 10 по 16 апреля)



Овен. Вы озаботитесь финансовыми проблемами. Везения в деньгах пока не предвидится. Из-за этого придется отложить покупку, о которой давно мечтали, или взять в долг. Зато именно сейчас у вас может появиться новый, причем весьма влиятельный друг, который впоследствии очень вам поможет.



Телец. Ни в коем случае нельзя действовать напролом. Окружающие не простят упрямство и настырность, поэтому, если не хотите конфликтов и ссор, сдерживайте свой напор. И никого не критикуйте. Есть смысл обновить гардероб: не исключено, что в выходные состоится интересная встреча.



Близнецы. Возможен мирный исход какого-то давнего крупного конфликта. Приятным событием может стать чей-то визит, подарок или позитивная новость на работе. Те, кто пытается трудоустроиться, получают интересное предложение. В выходные не отказывайтесь навестить старших родственников.



Рак. Рискуете запутаться в личных отношениях. Если у вас есть семья, постарайтесь предотвратить возможные конфликты и не позволяйте, чтобы семейные дела мешали работе, ведь именно в этот период можно особенно ярко проявить себя в профессии.



Лев. Не предвидится ничего, что может вас огорчить. Намеченное осуществится, все будет удаваться легко и не без помощи счастливого случая. В этот период нельзя терять контроль над содержимым вашего кошелька. Есть риск, что возникнет какой-то соблазн, и вы потратите больше, чем задумывали.



Дева. Избегайте людей, склонных к ненужным расспросам. Есть риск, что человек, который попытается втереться к вам в доверие, окажется излишне болтливым, а то и вовсе непорядочным. В этот период вы будете пользоваться повышенной популярностью в профессиональном сообществе.



Весы. Противопоказано сравнивать себя с другими. Такие сравнения могут вызвать лишь неудовлетворенность собой, досаду и зависть, причем без всяких оснований. По возможности возьмите отпуск хотя бы на пару дней, чтобы восстановить силы. Отдыхать лучше в одиночку.



Скорпион. Появится возможность пополнить бюджет. Возможно, удастся найти перспективную подработку, которая начнет приносить мгновенные результаты. Нежелательно давать деньги в долг, кого-то убеждать в своей правоте или давить авторитетом. Постарайтесь избегать шумных общественных мест.



Стрелец. Вы проявите усердие в профессиональных делах, но распределяйте нагрузку правильно. Есть риск устать от служебных проблем или упустить что-то в личной сфере. Семейным представителям знака нельзя пропускать важные сигналы от домочадцев. Возможно, настала пора что-то существенно менять.




Козерог. Неделя не обещает больших успехов ни в профессиональных делах, ни в личной жизни. Но стоит иметь в виду: присущий вам дар убеждения на эти дни вас покинет. Поэтому лучше не выступать с докладами, не вступать в дискуссии и даже в семейном кругу не затевать обсуждения серьезных вопросов.



Водолей. Если научитесь абстрагироваться от проблем на работе, то с легкостью переживете и внутрисемейный разлад, и конфликт с другом или коллегой. Постарайтесь пребывать в психологическом комфорте независимо от того, как будут складываться обстоятельства.



Рыбы. Начнут сбываться заветные желания. Принимайте это с благодарностью. Будьте снисходительны к окружающим, прощайте их слабости. Делитесь с близкими людьми сокровенными мыслями. Высока вероятность, что кто-то из них поможет ценным советом или оградит вас от неприятностей.



UMIDLI YOSHLAR

ULKAN MAQSAD YO'LIDA

Yoshlarni sportga keng jalb etish, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, jismoniy tarbiya va ommaviy sport turlari bilan muntazam shug'ullanishlarini ta'minlash ta'lim sohasining asosiy vazifalaridan biridir. Shu maqsadda IIV Ixtisoslashtirilgan maktab-internatida sportning yengil atletika, dzyudo, gimnastika hamda shaxmat turlari bo'yicha to'garaklar faoliyati yo'lga qo'yilgan. Maktab-internatda 2 nafar Osiyo, 5 nafar O'zbekiston chempionlari tahsil olmoqda.

Shulardan biri – Toshkent shahri Sergeli tumanida tug'ilgan Abdurahmon Mahamadjonov joriy yilning mart oyida Namangan va Jizzax viloyat-

larida sportning yengil atletika turi bo'yicha o'smirlar o'rtasida o'tkazilgan O'zbekiston chempionatida zafar quchib, 1-o'rinni qo'lga kiritdi. Ayni



vaqtda Abdurahmon murabbiylari qo'l ostida shu yilning may oyida o'smirlar o'rtasida o'tkaziladigan Osiyo chempionatiga qizg'in tayyorgarlik ko'rmoqda.

– Kelajakda ichki ishlar organlarida xizmat qilish orzusini shu sohada faoliyat olib borayotgan otam uyg'otgan – deydi yosh chempion. – Shu niyatda maktabimizda yaratilgan sharoitlardan unumli foydalanib, ta'lim-tarbiya olish, fanlarni chuqur o'zlashtirish bilan birga, o'zim

sevgan sportning yengil atletika turi bilan ham muntazam shug'ullanib kelmoqdaman. Yuqori natijalarga erishishimda maktab-internatida saboq berayotgan murabbiylarimning hissasi katta. Kelajakda jahon arenalarida yurtimiz bayrog'ini baland ko'tarishni niyat qilish bilan birga, Vatanimizga munosib xizmat qilishni maqsad qilganman.

Abduhamid ZIYOYEV,
IIV Ixtisoslashtirilgan maktab-internati jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi.



Madaniy hordiq

MUXLISLAR OLQISHI OSTIDA



Qashqadaryo viloyati musiqali drama teatrida IIV Madaniyat saroyi ashula va raqs ansamblining xayriya konsert dasturi bo'lib o'tdi. Unga xodimlar va ularning oila a'zolari, soha faxriylari, xizmat vazifasini bajarish chog'ida halok bo'lgan xodimlarning farzandlari taklif etildi.



Konsert davomida ansambl xonandalari, so'z ustalari tomonidan ijro etilgan ona yurtni madh etuvchi, mardlikni ulug'lovchi harbiy-vatanparvarlik ruhidagi kuy-qo'shiqlar, qiziqarli latifalar barchada unutilmas taassurot qoldirdi.

Tadbirida xayriya konsertidan tushgan mablag'ning bir qismi faxriylar, boquvchisini yo'qotganlar hamda xizmat vazifasini bajarish

chog'ida halok bo'lgan xodimlarning oila a'zolariga sovg'a sifatida berildi. Shu kuni Ashula va raqs ansambli a'zolari viloyat IIB tasarrufidagi Qarshi shahrida joylashgan «Nurli maskan» maktab-internati va 44-o'рта umumta'lim maktablarida ham bo'lib, konsert dasturini namoyish etishdi.

Sodiq RAHIMOV,
«Postda» muxbiri.

Qashqadaryo viloyati.

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir –

polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o'rinbosarlari –

mayor Azizjon FAYZIYEV
kapitan Aziza BOHODIROVA

Mas'ul kotiblar –

Jahongir SHAROFBOYEV,
Erkin SATTOROV

Navbatchilar –

kapitan
Mixli SAFAROV
Radik TUMPAROV

Sahifalovchilar –

Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbirlar –

Abu KENJAYEV
Ikrom HASANOV

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Faks: 71-231-40-05.

Obuna masalalari bo'yicha:

71-231-38-74;

97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz

E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami
h/r 23402000300100001010.

Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya
vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v
470010860262877031101179001
STIR 200637499.

Tahririyatga kelgan qo'l-
yozma va suratlar egasiga
qaytarilmaydi.

Nashrimizdan ko'chirib bosil-
ganda manba ko'rsatilishi shart.
Gazeta tahririyat kompyuter
markazida terildi va sahifalandi.

«O'zbekiston» nashriyat-matbaa
ijodiy uyi bosmaxonasida
chop etildi.

Korxonada manzili:
Alisher Navoiy ko'chasi 30-uy.

Gazeta O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda
0120-raqam bilan ro'yxatga
olingan.

Buyurtma №V-5452.

Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma
taboq. 50783 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:

Yakka tartibda – 180.
Tashkilotlar uchun – 366.
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.
Bosishga topshirildi – 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

MANZILIMIZ:

100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk
ko'chasi 9-uy.

